

Toshkent samiti
Iqtisodiy hamkorlik
tashkiloti hayotida
navbatdagi tarixiy
voqea bo'lishi
shubhasiz.


Markaziy Osiyodan Janubiy va Janubi-g'arbiy Osiyogacha cho'zilgan IHT hududi tabiiy resurslarga, tarixiy va madaniy merosga boy mintaqadir.

IHT davlatlari o'rtasidagi savdo miqdori
1 trillion dollardan oshdi.

2s

HAMZA HAKIMZODA NIYOZIY

100 yil avval nega faryod
chekkan edi?



milliy tiklanish

№ 38
17-iyun 2023-yil
3-marta chiqarilgan
Axborot - 7 186



MILLIY TIKLANISH
DEMOKRATIY
HARAKATINING O'ZBEKISTON
SHO'BA TASHKILATI

MILLIY QADRIYATLARGA TAYANGAN TARAQQIYOT



XALQLAR BIRDAMLIGI VA FAROVONLIGI YO'LIDA

O'zbekiston so'nggi yillarda faoliyati tinchlik, xalqlar birdamligi va farovonligiga qaratilgan yirik xalqaro tuzilmalarning faol ishtirokchisiga aylanmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev har doim davlatimiz tashqi siyosati butun dunyoda, jumladan, mintaqamizda mustahkam tinchlik, barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiyotni yuksaltirishga qaratilganini ta'kidlab kelgan. Zero, davlatlararo iqtisodiy hamkorlikni har tomonlama kengaytirish, mustahkamlash zamirida mamlakatimiz iqtisodiy qudrati, xalqimiz farovonligini oshirishdek ezgu maqsad yotibdi. Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (IHT) ham O'zbekiston faol ishtirok etayotgan nufuzli xalqaro tuzilmalardan biridir. Mazkur tashkilot nisbatan yosh bo'lishiga qaramay, xalqaro maydonda o'z o'rniga ega nufuzli tuzilmaga aylanib ulgurgan.

Davomi 2sahifada



DAVLAT BYUDJETI PARLAMENT NAZORATIDA

Soha mutasaddilari 2024-yilda yalpi ichki mahsulotning 5,6-5,8 foiz miqdorida o'sishini prognoz qilishyapti. Shuningdek, Yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari sanoatda ishlab chiqarishni 6 foiz, xizmatlar sohasida 6,1, qishloq xo'jaligida esa 4 foizga o'sishi evaziga ta'minlanadi.

Bugun Oliy Majlis Qonunchilik palatasida O'zbekiston Respublikasining «2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida»gi Qonuni loyihasi birinchi o'qishda muhokama qilinadi.


2s

«MILLIY TIKLANISH»



ANONSLAR

TARSAKILAR PAYTI KELDIYOV...



SAYLOVCHIGA YOLG'ON VA'DA BERMANG!

Erkaklarimiz xafa bo'lishmasinu, ular faqat bir narsaga ixtisoslashgan bo'lishadi: faqat ish uchun yashashadi, ish uchun rivojlanishadi. Ayollar esa ish uchun ixtisoslashadi, oilani rivojlantiradi, ya'ni davlat ishini ham, uy-ro'zg'or yumushlarini ham birdek uddalaydi.

NEGA O'ZBEKISTONDA ARALASH SAYLOV TIZIMI TANLANDI?

3s

GENDER TENGLIK BO'YICHA 151-O'RINGA CHIQDIK



3s

TIL HIMOYACHISI
«YURISH»
BOSHLADI

DIKTANT BIR
BAHONA,
XOLOS...

5s



DAVLAT BYUDJETI PARLAMENT NAZORATIDA

Bugun Oliy Majlis Qonunchilik palatasida «2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida»gi Qonun loyihasi birinchi o'qishda muhokama qilinadi. Mutaxassislar qayd etishlaricha, 17 ta modda va 11 ta ilovadan iborat buudjet loyihasi «O'zbekiston – 2030» strategiyasida belgilab olingan maqsadlardan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan. Soha mutasaddilari 2024-yilda yalpi ichki mahsulotning 5,6-5,8 foiz miqdorida o'rishini prognoz qilishyapti. Shuningdek, Yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari sanoatda ishlab chiqarishni 6 foiz, xizmatlar sohasida 6,1, qishloq xo'jaligida esa 4 foizga o'sishi evaziga ta'minlanadi. Ta'kidlanishicha, ushbu ko'rsatkichlarga har bir soha va tizimlardagi izchil islohotlarni sifatli davom ettirish orqaligina erishiladi.



Shuni alohida qayd etish joizki, qonun loyihasida ustuvorlik maktabgacha va maktab ta'limi, oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar, shuningdek, sog'liqni saqlash sohaslariga berilgan. Bundan tashqari, loyihadagi ekologiya, iqlim o'zgarishlariga moslashish, suv sarfini kamaytirish va uni tejab-tergab ishlalishini rag'batlantiruvchi tadbirlar asosiy tadbirlar sifatida belgilab olingan. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik sohasiga ham talab darajasida mablag' ajratish ko'zda tutilgan. Ushbu maqsad va yo'nalishlardan kelib chiqib, 2024-yil uchun Davlat byudjeti daromadlari (byudjetlararo transfertlarni inobatga olmaganda) 270,3 trln. so'm, xarajatlar esa

qonun loyihasini birinchi o'qishda konseptual jihatdan ma'qullagan bo'lsalarda, bir qator moddalar bo'yicha jiddiy savollar tug'ilganini ta'kidlash joiz. Masalan, «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi fraksiyasi majlisi kun tartibiga 2 ta muhim masala kiritilgan bo'lsa-da, deputatlar 4 soatga yaqin vaqt davomida aynan ushbu qonun loyihasini muhokama qildilar. Yig'ilish boshlanishidayoq partiya yetakchisi Alisher Qodirov qonun loyihasi bo'yicha asosiy ma'ruzachi – Iqtisodiyot va moliya vaziri o'rinbosari Ahadbek Haydarovning elektr energiyasi narxlarini belgilashda o'ziga xos imtiyozlar bilan birga belgilangan miqdordan ko'p ishlatganlarga yuqori to'lov stavkalari belgilanayotgani haqidagi fikrlaridan kelib chiqib, ming-minglab qishloq fuqarolarini o'ylantirayotgan bir masalaga e'tibor qaratdi.

– Tasavvur qiling, gaz yetib bormagan yoki umuman gazsiz hududlardagi katta bir qishloq oilasi tabiiy ravishda qish mavsumida elektr energiyasidan ko'proq foydalanadi. Bu esa shubhasiz, ularning elektr haqini yuqori stavkada to'lashlariga olib keladi. Vaholanki, qonunchilikda belgilanayotgan imtiyozlarning haqiqiy egalari bo'lgan ana shu qatlam kishilariga yaxshilik qilyapmiz deb aksincha, yomonlik qilib qo'ymayapmizmi? – dedi A.Qodirov. Ahadbek Haydarov masalaning o'ta nozik va ayni paytda hayotiylikni inobatga olib, bunday masalalarni partiya bilan hamkorlikda hal etishga va'da berdi. Deputat Ahmadjon G'aniyev esa partiya faollari anchadan beri ilgari surayotgan va Davlatimiz rahbari tomonidan

jiddiy e'tiborga olingan masala – 1-4 – sinf o'quvchilarini bepul o'qitilish bilan bog'liq xarajatlar nima uchun 2024-yil byudjetiga kiritilmaganini izohlab berishni so'radi. Mutasaddilarning ma'lum qilishlaricha, bolalarni bepul o'qitilish bilan bog'liq Prezident topshirig'i ijrosini ta'minlashga hatto xorijiy mutaxassislar, xususan, xalqaro moliya institutlari va YUNISEF ekspertlari ham jalb etilgan. Faqat o'qitilish sifatli tayyorlash va yetkazib berish uchun infrastruktura yaratishda ayrim muammolarga yuzaga kelgani bois bu masala vaqtincha kechiktirilmoqda. Ammo oradan biroz vaqt o'tib, aynan ushbu masalada Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri o'rinbosari Dilshod Kenjayev butunlay boshqacha fikr bildirgani deputatlarni o'ylantirib qo'ydi... Deputat A.Qodirov esa byudjet mablag'lari muhokama qilinayotganidan foydalanib, So'x tumani aholisini ichimlik suvi bilan to'liq ta'minlash masalasini ham ko'tardi. Mutasaddil bu masalani ijobiy hal etish uchun 40 milliard so'm miqdorida mablag' ajratilganini ma'lum qildilar. Deputat Umid Jabborov esa subsidiyalarni taqsimlashda yo'l qo'yilayotgan xatolardan xulosa chiqarish lozimligini ta'kidladi. Yig'ilishda shuningdek, deputat Ilhom Zoirov nima uchun

sog'lomlashtirish sohasiga qo'shimcha qiymat solig'i joriy etilgani, deputat Nazir Sobirov esa Mahalla byudjetini joriy etishga doir tartiblar belgilangan bo'lsa-da, joylarda ishlayotgani bilan bog'liq masalalarni ko'tardilar. Mutasaddilarning ma'lum qilishlaricha, sport sog'lomlashtirish markazlari jihozlari QQSdan ozod qilinmagan, ammo QQS 15 foizdan 6 foizga tushirilgan. N.Sobirovning savoli bo'yicha chindan ham 14 ta tuman namuna sifatida tanlab olingani, ayni paytda ushbu mablag'larni shaffof tarzda yetkazib berish bo'yicha takliflar tayyorlanayotgani aytiladi. Majlisda yana bir muhim masala – 2022-2026 – yillarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturining 2023-yilning to'qqiz oyi yakuni bo'yicha bajarilishi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining hisoboti to'g'risidagi masala ko'rildi. Asosiy ma'ruzachi sifatida ma'lumot bergan Adliya vaziri o'rinbosari Sherzod Robiyevning ta'kidlashicha, bu boradagi ishlar tizimli tarzda olib borilmoqda va ijrosi qat'iy nazorat qilinayapti. Shundan keyin deputat Umida Rahmonova millionlab yurtdoshlarimizni o'ylantirayotgan maktab darsliklari masalasini ko'tardi.

Uning aytishicha, hamon ko'plab maktablarga darsliklar yetkazib berilmagan. Bu savolga Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri o'rinbosari D.Kenjayev javob qaytarar ekan, darsliklar yaratish bo'yicha maxsus markaz tashkil etilganidan keyin tilga olingan muammolar bartaraf etilib, ayi paytda darsliklar yetishmasligi masalasi barham topganini ta'kidladi. Deputat Nodir Tilavoldiyev esa 2024-yilgi davlat byudjeti mablag'laridan 1 trillion 300 million so'm darsliklar yaratishga ajratish ko'zda tutilganini, bu o'tgan yilgi mablag'dan ancha ko'pligi sababini so'radi. D.Kenjayevning ma'lum qilishicha, o'tgan yillarda bir bolaga bir donadan kitob chiqarilgan bo'lsa, hozir bunday darsliklar soni 4 taga yetgan. Shuningdek, fraksiya yig'ilishida deputatlar «2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida»gi qonun loyihasida ta'lim tizimiga ustuvorlik berilgani ma'qullanib, bu pedagoglar faoliyatini rivojlantirish uchun keng imkoniyat ekani ta'kidlandi. Bugungi yalpi majlisda ham «Milliy tiklanish» fraksiyasi a'zolarining aynan shu mazmundagi masalalarni ko'tarishlari kutilmoqda.

Shoxida ESHONBOBOYEVA,
«Milliy tiklanish» muxbiri

2022-2026 YILLARDA YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASINI «INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI»DA AMALGA OSHIRISHGA OID DAVLAT DASTURINING 2023 YILNING TO'QQIZ OYI YAKUNI BO'YICHA BAJARILISHI YUZASIDAN O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING HISOBOTI TO'G'RISIDAGI MASALA KO'RILDI.

(byudjetlararo transfertlarni inobatga olmaganda) 279,6 trln. so'm miqdorida (Qonun loyihasining 1-ilovasi) belgilanmoqda. Davlat maqsadli jamg'armalari daromadlari esa (byudjetlararo transfertlarni inobatga olmaganda) 55,4 trln. so'm miqdorida, xarajatlari esa 86,8 trln. so'm miqdorida rejalashtirilmoqda. Bugun Oliy Majlis Qonunchilik palatasida ana shu ko'rsatkichlar birma-bir muhokama qilinadi. Bungacha esa partiyalar fraksiyalarida ushbu qonun loyihasi atrofida ko'rib chiqildi. Garchi deputatlar

XALQARO SAMMIT

(Boshlanishi 1-betda)

XALQLAR BIRDAMLIGI VA FAROVONLIGI YO'LIDA

TARIXGA NAZAR

1985-yil mintaqaviy davlatlararo tashkilot sifatida Tehronda tashkil etilgan Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti 1977-yil uch ta'sischi mamlakat – Eron, Turkiya va Pokiston tomonidan imzolangan «Izmir shartnomasi» Nizomiga asosan faoliyat ko'rsatayotgan Mintaqaviy hamkorlik tashkiloti merosxo'ri hisoblanadi. 1992-yilgacha IHT doirasidagi hamkorlik ikki tomonlama xususiyatga ega edi. Keyinchalik tashkilotning faoliyati sezilarli darajada faollashdi, safi o'z ixtiyori bilan a'zo bo'lgan davlatlar hisobiga kengaydi. Masalan, Ozarbayjon, Afg'oniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Tojikiston va O'zbekiston a'zo bo'lgach, IHT a'zolari 10 taga yetdi. Binobarin, davlatlar o'rtasidagi savdo miqdori ham shunga yarasha ortib, 2022-yil ma'lumotiga ko'ra, 1 trillion dollardan oshdi. So'nggi paytda tashkilot Janubiy Osiyo, Markaziy Osiyo va Yaqin Sharqda savdo-investitsiya faoliyatini takomillashtirish yo'llarini muhokama qilish uchun platformaga aylangan. Bunga misol tariqasida iqtisodiy

hamkorlikni chuqurlashtirishga qaratilgan Erkin savdo bitimi (ECOTA) – tranzit savdo bo'yicha kelishuv, Transport va tranzit kelishuvi (TTFa) kabi qator hujjatlar ishlab chiqilayotganini aytib o'tish joiz. IHT faoliyatining asosiy iqtisodiy va siyosiy parametri, 4-moddaga muvofiq, a'zo davlatlar rahbarlarining har ikki yilda bir marta o'tkaziladigan sammitlarida belgilanadi. IHT tuzilmasida bir necha asosiy organlar faoliyat yuritadi. Tashqi ishlar vazirlari kengashi yoki vazirlar darajasidagi vakolatli vakillar asosiy maslahatchi va ijro etuvchi organ hisoblanib, yiliga kamida bir marta yig'iladi. Mintaqaviy rejalashtirish kengashidan o'rin olgan a'zo mamlakatlarning turli davlat idoralari rahbarlari o'z hukumati nomidan harakat qiladi. Mazkur organ Vazirlar kengashiga IHT oldida turgan vazifalarni hayotga joriy qilish bo'yicha dastur ishlab chiqadi va ko'rib chiqishga taqdim etadi. Kengash a'zolari yiliga kamida bir marta to'planadi. Doimiy Vakillar kengashi esa siyosatni amalga oshirish uchun mas'ul doimiy organ

hisoblanadi. IHT Kotibiyati huzurida doimiy vakillar/elchilar akkreditatsiya qilingan. Yig'ilishlar oyiga kamida bir marta o'tkaziladi. –IHT Kotibiyati muvofiqshartirishni ta'minlaydi va tashkilot faoliyatini nazorat qiladi. Shuningdek, tasdiqlangan faoliyat rejasiga muvofiq, turli tadbirlarda bevosita ishtirok etadi. Bosh qarorgohi Tehronda joylashgan tuzilmaga Bosh kotib rahbarlik qiladi. 2021-yil 13-avgustdan boshlab IHT Bosh kotibi – Xusrav Noziriy. Kotibiyat mintaqaviy hamkorlikning asosiy yo'nalishlarini nazorat qiluvchi 6 ta ixtisoslashgan direksiyadan iborat: savdo va investitsiya, transport va aloqa, energetika, mineral resurslar va atrof-muhit, qishloq xo'jaligi va sanoat, inson resurslari va barqaror rivojlanish, iqtisodiy tadqiqotlar va statistika. IHT Kotibiyati tarkibida Giyohvand moddalar noqonuniy aylanishini nazorat qilish bo'yicha muvofiqshartiruvchi organ mavjud. Tashkilot kotibiyati va madaniyat bo'limi ham Eronda joylashgan, iqtisodiy byuro Turkiyada, ilmiy byuro esa

Pokistonda faoliyat yuritadi. Tuzilma kelgusi o'n yillikdagi faoliyatni belgilab beruvchi harakatlar strategiyasiga ega. Savdo, transport va kommunikatsiya, energetika, turizm, qishloq xo'jaligi, sanoat, ijtimoiy ta'minot va atrof-muhit kabi muhim sohalar bo'yicha dasturga ega. Mazkur dasturni a'zo mamlakatlar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy taraqqiyot dvigateli, qolaversa, tashkilotga a'zo davlatlar ijtimoiy-iqtisodiy integratsiyasi uchun qulay vosita ham, deyish mumkin. Dasturda mintaqalararo tovar ayirboshlashni ikki barobar oshirish orqali jahon iqtisodiyotida munosib ulushga ega bo'lishdek yuksak maqsad aks etgan.

TRANSPORT VA KAMMUNIKATSIYA

IHT dasturida hududiy tranzit transport infratuzilmasi takomillashtirilib, bojxona xizmati faoliyatini tashkil etish va infratuzilmani modernizatsiya qilishning yanada samarali mexanizmi birgalikda ishlab chiqilishi belgilab qo'yilgan. Markaziy Osiyodan Janubiy va Janubiy Osiyodan Janubiy va Janubiy Osiyodan Janubiy cho'zilgan IHT hududi tabiiy resurslarga,

”

Mintaqada ijtimoiy barqarorlikning yana bir muhim omili oziq-ovqat xavfsizligi hisoblanadi. IHT mamlakatlari agrosanoat majmuasi mintaqada jami yalpi ichki mahsulotining 14,5 foizini tashkil etadi.

tarixiy va madaniy merosga boy mintaqada hisoblanadi. Hududdan qadimiy Buyuk Ipak yo'li o'tgan. Bularning bari mintaqada dunyoning eng jozibador sayyohlik yo'nalishlaridan biriga aylanish imkoniyati mavjudligidan dalolat beradi. Mintaqada ijtimoiy barqarorlikning yana bir muhim omili oziq-ovqat xavfsizligi hisoblanadi. IHT mamlakatlari agrosanoat majmuasi mintaqada jami yalpi ichki mahsulotining 14,5 foizini tashkil etadi. Bu jarayonda faol aholining 40 foizi ishlaydi. Tuzilma doirasida agrosanoat kompleksini rivojlantirish

maqsadida Mintaqaviy oziq-ovqat xavfsizligi dasturi ishlab chiqilgan. Yana bir muhim vazifa energetika infratuzilmasini rivojlantirishdir. Energiya iste'moli tashkilotga a'zo mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi asnosida jadal o'sib boryapti. Bu holat energiya resurslari va xizmatlari samarali, adolati va arzon narxda ta'minlashni taqozo qiladi. Shu munosabat bilan dasturda global Barqaror rivojlanish maqsadiga muvofiq, mintaqaviy energiya barqarorligini ta'minlash bo'yicha umumiy sa'y-harakatni ishlab chiqish va birlashtirish zarurligi qayd etilgan. Tashkilot sammitida har gal qilingan ishlar, erishilgan muvaffaqiyat ko'rib chiqiladi, belgilangan maqsadlarni amalga oshirishda duch kelayotgan muammolarga yechim izlanadi, kelgusi rejalari ishlab chiqilib, muhim qarorlar qabul qilinadi. Bir so'z bilan aytganda, Toshkent sammiti ham IHT hayotida navbatdagi tarixiy voqea bo'lishi shubhasiz.

Saidmurod RAHIMOV,
O'ZA sharhlovchisi.



Sherzod QULMATOV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati

NEGA O'ZBEKISTONDA ARALASH SAYLOV TIZIMI TANLANDI?

Ma'lumki, jamiyatda siyosiy partiyalar roli hamda fuqarolarning siyosiy faolligini oshirish, davlat va jamiyat o'rtasida o'zaro uzviylikni ta'minlashda saylov tizimi muhim ahamiyatga ega. Zero, saylov – demokratik davlatning muhim belgisi hamdir. Bilamizki, dunyoning rivojlangan mamlakatlarida muvaffaqiyatli sinovdan o'tgan saylov tartiblari mavjud bo'lib, ular orasida, ayniqsa, davlat qurilishi tajribasida saylov tizimining majoritar, proporsional va aralash turlaridan unumli foydalaniladi.

Ayni paytda O'zbekistonda ham majoritar tartibga asoslangan saylov tizimi mavjud bo'lib, Parlament palatasi deputatlari shu tartib asosida, ya'ni hududiy bir mandatli okrugdan saylanganlar. Lekin, qayd etish joizki, xorijiy davlatlar tajribasi majoritar saylov tizimining ijobiy jihatlari bilan birga, bir qator o'ziga xos kamchiliklarini ham namoyon etmoqda. Xususan, amaldagi tajribaga ko'ra, parlamentni shakllantirishda saylovchilarning har bir berilgan ovozi emas, balki g'olib bo'lgan nomzodga berilgan ovozlarning inobatga olinadi. Ya'ni, g'olib bo'lgan nomzodni saylagan fuqarolarning xohish-irodasi asosida vakillik organlari shakllantirilib, qolgan saylovchilarning ovozlari e'tiborga olinmaydi. Proporsional saylov tizimida esa, saylovchilar aniq bir shaxsga emas, balki siyosiy partiyalarga ovoz beradilar va deputatlik o'rinlari partiyalar olgan ovozlarga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Shunday qulayliklarni e'tiborga olgan holda ayrim davlatlarda majoritar va proporsional saylov tizimidan foydalaniladi. Masalan, Janubiy Koreya, Belgiya, Vengriya, Qozog'iston,

Germaniya va Ispaniyada saylovlar ushbu tizim asosida o'tkaziladi. Aralash saylov tizimiga o'tilishi ayni paytda siyosiy partiyalar o'rtasidagi sog'lom raqobatni ham kuchaytiradi. Shu o'rinda yana bir muhim masalaga e'tibor qaratish joiz. Aralash saylov tizimida fuqarolarning siyosiy hayotdagi pozitsiyasi katta rol o'ynaydi. Shu bilan birga, siyosiy partiyalar va ulardan saylangan deputatlar o'zlariga berilgan vakolatlardan unumli foydalanmoqchi lozim bo'ladi. Aralash saylov tizimida saylovchilar deputatlarining bir qismini partiyalarga ovoz berish orqali saylashsa, qolgan mandatlarida majoritar tartibda ya'ni alohida nomzodlarga ovoz berish orqali saylov o'tkaziladi. Bu deputatlarining 50 foizi hududiy bir mandatli saylov okrugidan saylanib, qolgan 50 foizi partiya ro'yxatida saylanadi deganidir. E'tiborli jihati, aralash tizim proporsional tizimning umumiy afzalliklarini saqlab qolgan holda, saylangan deputatlar va saylovchilar o'rtasidagi aloqani ta'minlash hamda majoritar saylovda muvaffaqiyat qozona

olmagan partiyalarga ham o'zlari olgan ovozlarga mutanosib deputatlik mandatlarini qo'lga kiritish imkonini yaratadi. Davlat va jamiyat o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashda

fuqarolarimizning siyosiy faolligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bu esa milliy parlamentimiz faoliyatining kuchayishida, eng asosiysi siyosiy partiyalarning yanada jadallashuvida debocha

yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun saylov va referendum to'g'risidagi qonunchilikni yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga muvofiqlashtirishga qaratilgan bilan e'tiborga molik. Chunonchi, ushbu qonun bilan saylov okruglari bir mandatli va yagona saylov okruglariga ajratilmoqda. Qonunchilik palatasining 75 nafar deputati majoritar saylov tizimi asosida bir mandatli saylov okruglaridan, qolgan 75 nafar proporsional saylov tizimi (nomzodlar ro'yxati) asosida siyosiy partiyalarga berilgan ovozlarga bo'yicha yagona saylov okrugidan saylanishi belgilanmoqda. Shu bilan birga, partiya ro'yxatidagi ketma-ketlikda kamida har besh nafar nomzodning ikki nafari ayol kishi bo'lishi nazarda tutilyapti. Bu shubhasiz, gender tengligini ta'minlash, xotin-qizlarning o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishga keng yo'l ochadi. Bir so'z bilan aytganda, bugun O'zbekistonda majoritar-proporsional shakliga asoslangan saylov tizimi joriy etildi.

Qonunchilik palatasining 75 NAFAR DEPUTATI majoritar saylov tizimi asosida bir mandatli saylov okruglaridan, qolgan 75 nafari proporsional saylov tizimi (nomzodlar ro'yxati) asosida siyosiy partiyalarga berilgan ovozlarga bo'yicha yagona saylov okrugidan saylanishi belgilanmoqda.

shubhasiz, siyosiy partiyalar va ulardan saylangan deputatlarining hissasi katta. Xalq vakillarining saylanishida va ularning mamlakat hayotida kechayotgan siyosiy jarayonlarda ishtirok etishida ochiq va shaffof saylov tizimi zarur. Jahon tajribasida o'zini oqlagan aralash saylov tizimi –

vazifasini o'taydi. Shu ma'noda ham bir guruh deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida ishlab chiqilgan va quyi palata majlisida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o'tkazish tartibini

DEPUTAT SAVOL QOYDI VA...



Farhod ASHMATOV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati

TIRBANDLIKLARNING ASL SABABLARI NIMADA?

Bugun aholining asosiy qismi, xususan, o'quvchi-talabalar ham jamoat transportlaridan foydalanyapti. Shuning uchun ham davlat tomonidan yangi va qulay shart-sharoitlarga ega jamoat transportlari xarid qilinib, yo'nalishlarga taqsimlanadi. Aksariyat avtobuslarga nogironligi bor insonlar uchun alohida o'rindiqlar, elektron to'lovni amalga oshirish uskunalaridan tortib, konditsionergacha o'rnatilganini ta'kidlash joiz. Ammo ming afsuski, poytaxt ko'chalaridagi tirbandliklar sabab yo'lovchilar ko'p vaqtlarini yo'lda o'tkazmoqdalar. Bu esa tizimda tezkor choratadbirlar ko'rish, yo'llarda harakatlanayotgan yengil avtomashinalar egalari huquqiy madaniyatini yuksaltirish, yo'llar infratuzilmasini yaxshilash zarurligini ko'rsatyapti. To'g'ri, bu borada mutasaddilar qo'l qovushtirib o'tirishgani yo'q. Masalan, joriy yilda Toshkent shahrida avtobuslar uchun 186,6 km. alohida yo'laklar ajratilishi belgilangan bo'lib, shundan 48,2 km. yo'laklar foydalanishga topshirildi. Toshkent metropolitenini rivojlantirish borasida ham yangi loyihalar ro'yobga chiqarilayotir. Ya'ni metropolitenida yangi liniyalar tashkil etilib, qo'shimcha stansiyalar qurilayotgani fuqarolar uzog'ini yaqin qilyapti. Masalan, statistikalar oxirgi yetti yilda metro bekatlari soni 29 tadan 50

tanga yetkazilib, 21 ta yangi zamonaviy bekat qurilganini, yo'nalishlar masofasi esa 38 km.dan 70 km.ga yetkazilganini ko'rsatyapti. Shu bilan birga 15 ta yangi metro poyezdlari xarid qilinib, eski vagonlar qayta ta'mirlandi. Ammo real holat bu natijalarning hali yetarli emasligidan dalolat beryapti. Chunki, aholi soni ortgani sari jamoat transporti sonini oshirish, sifatli xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish, yo'l infratuzilmasini yaxshilashga bo'lgan ehtiyoj ham, mavjud muammolar ham ortib boraveradi. Misol uchun, oxirgi paytlarda metro poyezdlarining buzilib qolish holatlari tez-tez kuzatilayotgani, turli sabablar bilan poyezdlar harakati belgilangan vaqtdan kechikayotgani shular jumlasidandir. Shu nuqtayi nazardan, 2024-yilda qo'shimcha 40 ta yangi metro poyezdlari xarid qilinishi rejalashtirilgani ayni muddao bo'ldi. Shuni alohida ta'kidlash kerak, bugun har birimiz yo'l harakati ishtirokchilari hisoblanamiz. Shu bois, yo'llarda harakat xavfsizligini ta'minlash, joriy etilayotgan qoidalarga qat'iy rioya qilish va to'g'ri munosabatda bo'lish, yo'lda ongli xulq-atvorni shakllantirish eng muhim vazifalarimizdan sanalishi kerak. Prezidentimizning shu maqsadda qabul qilingan 2022 – 2026-yillar davomida amalga oshirilishi mo'ljallangan "Xavfsiz va ravon yo'l" umummilliy dasturi ushbu yo'nalishdagi islohotlarni jadallashtirishga qaratilgandir.

MUNOSABAT

GENDER TENGLIK BO'YICHA 151 -O'RINGA CHIQDIK

YANGILANGAN KONSTITUTSIYAMIZNING 58-MODDASIDA XOTIN-QIZLAR VA ERKAKLAR TENGLIKI BO'YLISHI BILAN BIRGA, JAMIYAT HAMDA DAVLAT ISHLARINI BOSHQARISHDA, SHUNINGDEK, BOSHQA SOHALARDA TENGLIK VA IMKONIYATLAR BILAN TA'MINLASHI NORMA SIFATIDA BELGILAB QO'YILDI.

Ma'lumki, xalqaro gender ko'rsatkichlardan biri bu - dunyo parlamentlarida ayollar ulushi bilan bog'liq. Dunyo parlamentlarini birlashtirgan Parlamentlararo Ittifoqda xotin-qizlarning parlamentdagi ishtiroki va rolini oshirish kun tartibidagi eng muhim masalalardan biri sanaladi. Joriy yilda tarixda ilk bor dunyo parlamentlarida ayollar ulushi 26,5 foizni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 2,3 foizga ko'pdir. (2022-yilda o'tkazilgan 47 mamlakatdagi parlament saylovlari ayollar parlamentda 25,8 foiz o'rinni egallagan edi). Ayni paytda parlamentda ayollar sonining ulushi bo'yicha Ruanda (61,3 foiz), Kuba (55,7 foiz) va Nikaragua (51,7 foiz) birinchi uchlikni egallab turgan bo'lsa, Islandiya (47,6 foiz) 8-, Shvetsiya (46,4 foiz) 10-, Buyuk Britaniya (34,6 foiz) 47-, AQSH

(28,9 foiz) 70-o'rinni egallab turibdi. Yevropa instituti ma'lumotlariga ko'ra, gender tenglik bo'yicha Yevropada 2017-yildan beri ayollarning parlamentdagi vakilligi 30-33 foiz darajasida saqlanib, o'sish deyarli kuzatilmagan. O'zbekiston esa 33,6 foiz ko'rsatkich bilan 191 davlat ichida 51-o'rinni egallab turgani bu borada olib borilayotgan islohotlar natijasi, albatta. Shu o'rinda, parlamentdagi ayollar vakilligining oshishida deputatlikka ko'rsatilgan nomzodlar umumiy sonida ayol nomzodlar uchun kvotalarning qonun hujjatlarini bilan belgilanishi muhim omil ekanini ta'kidlash joiz. Xususan, 2022-yilda qonunchilikda bunday kvotalar belgilangan davlatlarda 30,9 foiz, kvotalar kiritilmagan davlatlarda 21,2 foiz ayollar parlamentga saylanish imkoniyatiga ega bo'lishgan.

Yana bir fikr: yaqinda Saylov kodeksining 70 va 91-moddalariga siyosiy partiyalar tomonidan deputatlikka nomzodlar ko'rsatilayotganda ayollar sonining eng kam miqdorini nomzodlar umumiy sonining o'ttiz foizidan qirq foizga oshirishni nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritildi. Bu esa O'zbekistonda xotin qizlar, ularning jamiyatdagi o'rini oshirish masalalari muhim bo'lib qolayotgani va bu kabi siyosiy qat'iyatdan ortga qaytilmasligini anglatadi. Eng muhimi, qonunchilikka kiritilayotgan bunday yangilashlar ayrim davlatlarning olib borayotgan siyosatiga emas, bizing manfaatlarimizga ko'proq xizmat qiladi.

Nodir TILAVOLDIYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
deputati

«MILLIY TIKLANISH» ijtimoiy-siyosiy gazetasi qanday nashr?

U bugungi tekzor zamonda o'z o'quvchilari ishonchini qay darajada oqlayapti? Keyingi yillarda butunlay yangilangan ushbu gazetaning parlament islohotlari va saylovchi ishonch bildirgan deputatlar faoliyati xususidagi tahliliy va keskin tanqidiy chiqishlaridan oddiy o'quvchi qay darajada xabardor? Loqaydlik va yolg'onga murosasizlikni ilgari surayotgan, chin vatanparvarlik va halollik tarafida turgan gazeta bugun har bir fuqaro uchun xolis minbar bo'lishga intilmoqda. Bu quruq va'da emas. Bu hazrati o'quvchi manfaatini himoya qilish yo'lidagi urinishlarga ishora, xolos. «Milliy tiklanish» o'quvchi bilan zamonaviy munosabatlar o'rnatilishi va o'zaro manfaatli hamkorliklar rivojlanishi tarafdoridir. «Milliy tiklanish»ga obuna bo'lishdan oldin uning yaqin o'tmishdagi faoliyatini o'rganing, ishonch paydo bo'lsagina u bilan do'stlashing. Biz Sizni kutamiz...



OBUNA -2024!

2024-YIL UCHUN «MILLIY TIKLANISH» GAZETASIGA OBUNA BO'LING!

Obuna indeksi 158



Afsuski, bugun ko'p hollarda deputatlar salbiy qahramonga aylanib qolishyapti. Yaqinda menga ham bir fuqaro murojaat qilib: «Sizning minib yurgan «Mercedes» mashinangizda ham, olayotgan maoshingizda ham, hattoki qo'lingizdagi rukkada ham xalqning haqqi bor. Chunki siz bizning ovozimiz bilan deputat bo'lgansiz», deb qoldi.

AYOL VA SIYOSAT

Saylovchiga yolg'on va'da bermang!

«Siyosatga marhamat» loyihasining navbatdagi mehmoni bilan tanishib: Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Umida Rahmonova.



Erkaklarimiz xafa bo'lishmasinu, ular faqat bir narsaga ixtisoslashgan bo'lishadi: faqat ish uchun yashashadi, ish uchun rivojlanishadi. Ayollar esa ish uchun ixtisoslashadi, oilani rivojlantiradi, ya'ni davlat ishini ham, uy-ro'zg'or yumushlarini ham birdek uddalaydi. Shu nuqtayi nazardan bugun davlatning o'z siyosatiga ega bo'lgan, uni rivojlantirishga harakat qilayotgan, ma'lum natijalarga erishayotgan ayollarga ehtiyoji bor.



– Siyosatga qachon kirib kelgansiz?

– Menimcha, jamiyatning har bir a'zosi siyosatga daxldor bo'ladi.

Bolaligimizdan dadam bizni mustaqil fikrlashga, mulohazalarimizni erkin bayon etishga o'rgatganlar. 5 yoshligimdan eslayman, dadam doimo fikrlarimiz bilan qiziqardilar.

1200 o'quvchisi bor maktabda tahsil olganman. Boshlang'ich sinfdaligimdayoq biror sinfdoshimni, u xoh o'g'il bola bo'lsin, xoh qiz bola, nohaq xafa qilishsa, qo'rqmasdan uni himoya qilardim, haqiqat qaror topmaguncha tinchimasdim. O'zimga ham, o'zgalarga ham juda talabchan edim. Hatto, maktabning eng oldi o'quvchisi bo'lishga harakat qilardim. Shunday katta maktabda lider bo'lish oson emasdi. 2008-yili sport yo'nalishida Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo'ldim. Jurnalistika yo'nalishida tahsil oldim. Jamiyat rivojiga to'siq bo'layotgan turli illatlar haqida yozganimda, onam xavotirga tushib: «Qizim, siyosatga aralashmagin, yaxshi narsalar, chiroyli o'zgarishlar ham ko'p-ku, shular haqida yozgin», derdilar.

Mana hozir siyosatning qoq markazidaman...

– Siyosatga kirib kelishingizda partiyaning o'rni bormi?

– Hayotimda ham, tanlovimda ham «Milliy tiklanish»ning o'rni juda katta. Jurnalist sifatida faoliyatim davrida xolislik, betaraflik nuqtayi nazaridan, hech bir partiya a'zo bo'lmaganman. 2014-yilda aynan shu partiyadan viloyat Kengashi deputatligiga nomzodim ko'rsatilgach, partiyaning Saylovoldi dasturi bilan tanishib chiqdim va uning g'oyasi o'z oldimga qo'yg'an rejalarim bilan o'xshash ekanligini his qildim. Bir so'z bilan aytganda, men partiyada o'zimni topdim.

– Ayollar siyosiy faol bo'lishi kerak, deya'pimiz. Lekin siyosat ayollarga qanchalik muhtoj?

– «Siyosatga marhamat!» loyihasi yo'lga qo'yilgandan buyon shu savol atrofida ko'p o'ylandim.

Siyosat – bu davlat boshqaruvi. Siyosat – ma'lum bir natijador maqsadga erishish uchun g'oyalari to'plami. Har bir insonning davlat boshqaruvidan tashqari o'z hayotini boshqarish yo'lidagi siyosati ham bo'ladi. Siyosat faqat davlat boshqaruviga aralashish degani emas, bu mening shaxsiy xulosam, albatta. Hayotimizni to'g'ri yo'lga qo'yishimiz uchun ham o'z siyosatimiz bo'lishi kerak. Erkaklarimiz xafa bo'lishmasinu, ular faqat bir narsaga ixtisoslashgan bo'lishadi: faqat ish uchun yashashadi, ish uchun rivojlanishadi. Ayollar esa ish uchun ixtisoslashadi, oilani rivojlantiradi, ya'ni davlat ishini ham, uy-ro'zg'or yumushlarini ham birdek uddalaydi. Shu nuqtayi nazardan bugun davlatning o'z siyosatiga ega bo'lgan, uni rivojlantirishga harakat qilayotgan, ma'lum natijalarga erishayotgan ayollarga ehtiyoji bor. O'z navbatida ayollar ham qo'llab-quvvatlanishga muhtoj. Ya'ni, siyosatda ayollar uchun imkoniyatlar yaratilgan bo'lishi mumkin, davlatning qonunlari, strategiyasida ularning siyosiy faolligini oshirish, rivojlantirish uchun ko'plab loyihalar taqdim etilgan bo'lishi mumkin, lekin ayolning yonida uni tushunadigan, mehnat faoliyati uchun shart-sharoitlar yaratib beradigan, qo'llab-quvvatlaydigan yaqin insoni bo'lmasa, hech qanday natijaga erishib bo'lmaydi. Aksincha, ayolning ishtiyoqi, shaxsiy siyosati ham so'na boshlaydi.

– Deputatni xalq saylaydi, uning faoliyatiga bahoni ham xalq beradi. Afsuski bugun deputatlar haqida ijobiy fikrlardan ko'ra, salbiy fikrlar ko'proq. Bunday fikrlarga qanday qaraysiz?

– Afsuski, bugun ko'p hollarda deputatlar salbiy qahramonga aylanib qolishyapti. Yaqinda menga ham bir fuqaro murojaat qilib: «Sizning minib yurgan «Mercedes» mashinangizda ham, olayotgan maoshingizda ham, hattoki qo'lingizdagi rukkada ham xalqning haqqi bor. Chunki siz bizning ovozimiz bilan deputat bo'lgansiz», deb qoldi. Men unga: «Har bir deputat saylovoldi uchrashuvlarda aholiga bergan va'dalari yuzasidan o'z saylovchilari, qolaversa, vijdoni

oldida hisobot beradi», deya javob berdim. Siyosiy savodxonligi yetishmaydigan bu kabi saylovchilarning fikrlari o'rinli bo'lsa-da, insonimiz, ko'nglimiz bor, yuragimiz og'riydi...

Afsuski, fuqarolarimizda, deputatning vazifasi, u mahalliy kengash deputati bo'ladimi, parlamentdagi deputatmi, farqi yo'q, saylovchilarning har qanday muammolarini hal etishdir, degan noto'g'ri tushuncha shakllanib qolgan. Saylovchilarimiz deputatning vakolatlari nimalardan iborat ekanligini va u qayerda tugashini yaxshi anglab olishlari lozim. Buning uchun esa aholining siyosiy savodxonligini oshirish kerak.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatining vazifasi fuqaro murojaatlari bilan ishlash, ammo ularning maishiy muammolarini hal qilish emas. Deputatning asosiy vazifasi o'zi saylangan okrug fuqarolarining qonunchilikdagi huquqlarini himoya qilish, aholini yangi qabul qilingan qonunlarning mazmun-mohiyati bilan tanishtirish, ularni takomillashtirishga oid hududiy takliflarni Parlamentda muhokama qilish, shuningdek, o'z hududini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga doir masalalarni o'rganib, shu asosda qonunlarni o'zgartirishga oid takliflar kiritishdan iborat. Fuqarolar tomonidan ijroda buzilgan qonunlar bo'yicha murojaatlar bo'lsa, deputat, albatta, ularning amaliy yechimi yuzasidan chora-tadbirlar belgilaydi va Parlamentda o'tadigan fraksiya, qo'mita yig'ilishlarida o'zi ko'targan masalaning muhimligini isbotlashga harakat qiladi. Bu esa qizg'in bahs va munozaralar, tortishuvlarga sabab bo'ladi.

– Deputat sifatida amalga oshirgan qaysi ishingiz bilan maqtana olasiz? Ayni paytda vakolatingiz doirasida hal qilishning imkoni bo'lmayotgan masala ham bormi?

– Garchand aholi murojaatlari bilan ishlash vazifamizga kirmasa-da, ko'plab tashkilotlar eshigida sarg'ayib, muammosi hal bo'lmagach, menga murojaat qilgan fuqarolarning oxirgi umidini ham so'ndirmaslikka harakat qilaman. Murojaatchi mening okrugimdanmi, yo'qmi, ahamiyati yo'q, har bir muammo yechimiga yuragimni berib kirishaman.

Yaqinda boshqa hududda yashaydigan bir ayol menga murojaat qilib: «Ayol dardini ayol yaxshi tushunadi, opa, menga yordam bering. Turmush o'rtog'im vafot etgach, qaynotam uch nafar farzandim bilan bizni uydan haydab yubordi. Alam qiladigani, bu yuni erim bolalarimiz uchun qurgandim», deya zorlandi. Yuridik ma'umotga ega

ahamiyati yo'q, har bir muammo yechimiga yuragimni berib kirishaman.

Yaqinda boshqa hududda yashaydigan bir ayol menga murojaat qilib: «Ayol dardini ayol yaxshi tushunadi, opa, menga yordam bering. Turmush o'rtog'im vafot etgach, qaynotam uch nafar farzandim bilan bizni uydan haydab yubordi. Alam qiladigani, bu yuni erim bolalarimiz uchun qurgandim», deya zorlandi. Yuridik ma'umotga ega

«Milliy tiklanish»da maktabgacha ta'lim tizimi bosh g'oyalardan biri. Partiyaning saylovoldi dasturida bu yo'nalishda belgilangan bir qator ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Kogon tumanidagi DMTTda o'rganishlar olib bordik va tizimli muammoga duch keldik.

bo'lmasam-da, sudning qarorini o'rganib, tegishli mutaxassislar bilan maslahatlashib, sud jarayonlarida ayrim xatoliklarga yo'l qo'yilganini aniqladim. Biz deputat sifatida sudlarga murojaat qilish vakolatiga ega emasmiz. Shunday bo'lsa-da, Oliy Majlisda ko'rib chiqilgan bu masalani o'z nazoratimga olib, ayolning muammosi ijobiy hal etilishiga yordam berdim...

Har gal Buxoroga borganimda o'sha ayol menga qo'ng'iroq qilib: «Singlim, sizga ming rahmat, siz tufayli uy-joyli bo'ldik», deya minnatdorlik bildiradi. «Menga rahmat aytishning hojati yo'q, siz o'z qonuniy mulkingizni qaytarib oldingiz, xolos», deymen unga.

Bilasis, «Milliy tiklanish»da maktabgacha ta'lim tizimi bosh g'oyalardan biri. Partiyaning saylovoldi dasturida bu yo'nalishda belgilangan bir qator ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Kogon tumanidagi DMTTda o'rganishlar olib bordik va tizimli muammoga duch keldik. Tumandagi bog'chalarning oziq-ovqat mahsulotlari saqlanadigan omborlariga havo sovitgichlar o'rnatilmagani aniqlandi. Buxoro iqlimida 20 daraja haroratda saqlashni talab etadigan meva va sabzavot mahsulotlari, qadoqlangan meva shabatlarini havo sovitgichlari bo'lmagan joyda saqlash mumkin emas. Chunki bu hududda yoz oylarida salqin joyda ham havoning harorati 20 darajadan tushmaydi. Bunday mahsulotlar uch kundayoq yaroqsiz holatga keladi. Lekin ularning yorlig'idagi sanaga qarab, iste'molga yaroqli, deya bolalarga beriladi. Bog'chalarda kuzatilayotgan bolalarning oziq-ovqatdan zaharlanishi bilan bog'liq noxush holatlarning asl sabablaridan biri ham shundadir, balki. Biz ushbu muammo yuzasidan mutasaddilarga keskin talablar qo'ydik va qisqa muddatda Kogon tumanidagi barcha davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari omborlariga havo sovitgichlar o'rnatilishiga erishdik.

Afsuski, valokatim doirasida hal bo'lmayotgan masalalarim ham bor. Uy-joyga chindan ham muhtoj bo'lgan boquvchisini yo'qotgan bir ayol bor. Ikki-uch joyda ishlab, ro'zg'or tebratadi. Shu ayolning uy bilan ta'minlanishiga yordam berish hozircha qiyin masala bo'lib turibdi. Yana bir masala – 20

900

nafar o'quvchi tahsil oladigan 20-maktab necha yildirki, rekonstruksiya kiritilib, noma'lum sabablarga ko'ra qolib ketaverar ekan. Shu maktabning bir guruh o'qituvchilari bu masalada Oliy Majlisga murojaat qilishdi. Natijada maktab rekonstruksiya qilindi. Bu harakatim ko'pchilik rahbarlarga yoqmasdi.

nafar tadbirkorga ziyoratgoh atrofidan joy ajratilgan. Ular joyning to'lovini ham oldindan amalga oshirishgan. Lekin bino qurilishi oxiriga yetkazilmagan. Tadbirkorlarning mablag'larini qaytarib berishning birgina yo'li ana shu chala obyektini sotuvga qo'yishdir va biz shunday qildik. Lekin hozircha unga xaridor chiqmayapti. Har safar ana shu tadbirkorlarga ro'para kelib qolganimda, ularga nima deyiшни bilolmay, hijolat tortaman.

bandlik masalasi oson yechiladi. Ayrim fuqarolarimiz o'z muammolari bo'yicha kimga va qayerga murojaat qilishni bilishmaydi. «O'nta tashkilotga murojaat qildim, ammo masalam hal bo'lmadi», deyishadi davlatdan norozi bo'lib. Ularning masalasini aynan qaysi tashkilot hal qilib berishi mumkinligini bilishmaydi, xolos. Bundan saylovchilarimiz bilan yuzmayuz uchrashuvlar, ijtimoiy tarmoqlar orqali olib borayotgan targ'ibotlarimiz orqali sezdimki, aholining huquqiy savodxonligini oshirishga ko'proq e'tibor qaratishimiz lozim.

– Saylovlarda g'alaba qozonishga oid tavsiyalarimiz.

– Men noodatiy deputatman. Ya'ni, to'qqiz oylik homilam bilan Parlament deputati bo'lganman. Saylovoldi uchrashuvlarda menga: «Kechirasiz, sizga tug'urug ta'tiliga chiqib, bola parvarishlashingiz uchun ovoz beramizmi?» deya savol bergan saylovchilar ham bo'lgan. Men esa ularga: «Men homilamni besh yil ko'tarib yurish niyatim yo'q, nasib bo'lsa, hademay farzandimni qo'limga olaman va u bilan birga sizning xizmatingizda bo'lalim», deb javob berganman.

Deputatlikka nomzodi qo'yilayotgan opa-singillarimizga o'z tajribamdan kelib chiqqan holda shunday tavsiyalar bergan bo'lardim: «Saylovchilarga deputat bo'lish uchungina emas, o'z imkoniyatingiz darajasida va'dalar bering. Tasavvur qiling, saylovoldi uchrashuvlarda aholiga katta-katta va'dalar berdingizu, ularni amalga oshirishning uddasidan chiqa olmadingiz. Bugungi saylovchi kelchag beparvo, o'z deputatini tanimaydigan saylovchi emas. Xalq sizni o'z vakili sifatida tanladimi, va'dalaringiz ijrosini ham talab qiladi va u bunga haqli! Eng avvalo, nomzodingiz qo'yilgan okrugdagi muammolarni o'rganib, ularni bartaraf qilishga oid dasturaringizni ishlab chiqing. Uchrashuvlarda saylovchini nafaqat partiya saylovoldi dasturida belgilangan vazifalar, balki deputatlikka nomzod sifatida o'z oldingizga qo'ygan maqsad va vazifalaringiz bilan ham tanishtiring.

– Siz havas qiladigan siyosatchi ayol kim?

– Mening shunday bir odatim bor: bilmadim, balki bu yaxshi odat emasdir. Aynan bir shaxsni o'zimga to'laqonli qahramon sifatida qabul qila olmayman. Dunyoga mashhur siyosatchi ayollarning ma'lum bir jihatlariga havas qilishim mumkin. Masalan Margaret Tetcherning tirishqoqligi, hech qachon taslim bo'lmagligiga, Tanzila Norboyevaning samimiy tanzofasiyu, Abira opaning asalaridek tinib-tinchimay mehnat qilishiga, Feruza Muhammadjanovaning notiqiligiga havas qilishim mumkin. Lekin har jihatdan havas qiladigan ayol bu onamdur. To'g'ri, onam siyosatchi emas, lekin yuqorida ta'kidlaganimdek, har bir insonning davlat siyosatidan tashqari o'z siyosati bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, oila siyosati, ro'zg'or tutumi, farzand tarbiyasi borasida havas qiladigan insonim – bu mening ONAM!

Loyiha koordinatori
Feruza JALILOVA

✓ Kuting!

MAJORITAR VA PROPORSIONAL SAYLOV TIZIMI SARI

Kelgusi sonlarda



Yangi loyiha


Diktant bir bahona, xolos...

“Ayollar va yoshlar qanot”i tashabbusi bilan yana bir loyihaga start berildi. Til bayrami arafasida “ishlab chiqarish”ga qabul qilingan loyihadan ko‘zlangan maqsad Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi bilan hamkorlikda yurtodoshlarimizning o‘zbek tilini bilish darajasini o‘rganish, nutq madaniyati bilan bog‘liq salbiy ta’sirlarga qarshi kurashish hamda o‘zbek yozuviga asoslangan lotin alifbosiga oid islohotlarni jadallashtirishga ko‘maklashishdir.

Loyiha tashabbuskorlarining fikricha, endilikda markaz bilan hamkorlikda muntazam ravishda “Ommaviy diktant”lar kunlari o‘tkazib boriladi.

O‘tgan hafta mazkur loyiha ilk bor Bojxona qo‘mitasi va Bojxona instituti kursantlari o‘rtasida tashkil etildi.

– Globalashuv jarayonida tobora ko‘p tili bo‘lib borayotgan o‘zbek jamiyatining davlat tiliga hurmat va e‘tiborini kuchaytirish uchun ham bugungidek tadbirlar kerak, – dedi Partiya raisi o‘rinbosari Feruza Muxammedjanova. – Ayniqsa, yoshlarga har bir xalqning tilini uning buyuk qadriyati, o‘zligining timsoli, millatning ruhi, tafakkuri va tarixini aks ettiruvchi ma’naviy xazinasi sifatida ardoqlanishi lozimligini anglatish, tilimizning ko‘p millatli xalqimizni birlashtiruvchi kuch sifatidagi o‘rni va ta’sirini yangi bosqichga ko‘tarish bugun oldimizda turgan muhim vazifalardan biridir. Bolalarimiz



o‘zbekcha gapiryaptimi? Bu savolga haqqoniy javob beradigan payt keldi. Chunki o‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganiga 34 yil bo‘ldi. Bu savol millatidan qat’i nazar, hammani o‘ylantirishi kerak...

Tadbirda Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi mutaxassislari kursantlardan “Milliy qadriyatlar ona tili bilan singadi” mavzusida diktant oldilar. Quvonarlisi, g‘oliblar kutilganidan ham ko‘p bo‘ldi.

– Bo‘lajak bojxonachi qizlar savodxonlik bobida O‘zbek tili va adabiyoti universiteti talabalaridan sira qolishmadilar. Kursantlarning bunday natijalarida ustozlarning xizmati beqiyos, albatta, – dedi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazining ilmiy metodik ta’minot bo‘limi boshlig‘i Shahboz Zarmasov.

Tadbirda Toshkent shahar hokimining til masalalari bo‘yicha maslahatchisi Akmal Ro‘zitoyev ham ishtirok etib, hokimlik ushbu loyihani hamkorlikda davom ettirishga tayyor ekanini bildirdi.

Tanlov yakunida g‘oliblarga hamkor tashkilotlarning esdalik sovg‘alari topshirildi.


Feruza JALILOVA, partiya Markaziy kengashi bo‘lim boshlig‘i

E’tirof

Til himoyachisi «yurish» boshladi

Mana bir oydan oshdiki, ona tilimiz bosh himoyachisi deya e’tirof etilayotgan Davlat tilini rivojlantirish departamenti o‘z vazifasi ijrosiga jiddiy kirishganini amalda isbotlay boshladi. Departament mutasaddilarining xabar berishlaricha, respublika bo‘ylab «Reklama to‘g‘risida»gi qonunga amal qilish yuzasidan nazorat tadbirlariga qattiq kirishilgan. Qayd etilishicha, tadbirkorlarga «Reklama to‘g‘risida»gi qonunga ko‘ra, avvalgidek, ro‘yxatdan o‘tgan mahsulot va xizmat ko‘rsatish belgilari hamda logotiplar asl tilda ko‘rsatilishi mumkin. Yangi reklamaning o‘zi esa davlat tilida tarqatilishi shartlig‘i tushuntirilmoqda. Shuningdek, tadbirkorlar realizatsiya qilinishi yoki reklama qilinishi qonunchilikda taqiqlangan yoki cheklangan mahsulot to‘g‘risida reklama tarqatganlik – bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravari miqdorida jarima solinishiga sabab bo‘lishi haqida ogohlantirilyapti. Bundan tashqari, nazorat tadbirlari davomida tartibsiz joylashtirilgan, ruxsat etilmagan joylarga o‘rnatilgan va «Davlat tili haqida» hamda «Reklama to‘g‘risida»gi Qonunlarga mos kelmagan tashqi reklamalarni bartaraf etish choralarini ko‘rilmoqda. Umid qilamizki, bunday fao va shijoatli «yurishdan» keyin biron-bir hududda qonunga amal qilmagan reklama bannerlari «omon» qolmaydi...

Mahbuba KARIMOVA



ZARRABIN

TARSAKILAR

PAYTI KELDIOV...

To‘g‘risi, hali hech kimning oldida bunchalik mulzam bo‘lmagandim. Leyma va uning oilasini Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroportidan Moskvaga kuzatib qo‘ygach, uyga qaytarkanman, kela-kelguncha dilimda savollar charx uraverdi: Qayoqqa qarab ketyapmiz o‘zi?! Nimalar qilyapmiz?! Umuman bunaqalarni jilovlaydiganlar bormi?!

Va, beixtiyor suykli adibimiz Xurshid Do‘stmuhammadning bir intervyusidagi quyidagi so‘zlari yodimga tushdi: «Men Qur‘oni Karimda kelgan bir oyatni ko‘p takrorlayman. «Qayon ketmoqdasizlar» deydi Alloh. Muqaddas oyati kalimadagi shu savolni men har bir tanish va notanish kishiga bergim keladi».

Jilla qursa kitob varaqlagan inson men guvoh bo‘lgan holatlarga sira yo‘l qo‘ymaydi. O‘ylaydi, mushohada qiladi... va o‘z-o‘zini nazorat qila biladi.

Leyma Tomkute Litva poytaxti – Vilnyusda yashaydi. Bundan 10 yilcha avval ushbu davlatning Trakay shahridagi sihatgohlardan biriga borganimda u bilan tanishganman. To‘g‘risi, Leyma yurak-qon tomir kasalliklari bo‘yicha o‘tkir mutaxassis, mohir jarroh. Xullas, uning uzoq va mashaqqatli mehnatlari sabab yurakdagi xastalikdan butkul qutuldim. Minnatdorlik sifatida uni O‘zbekistonga bir necha bora taklif qilsamda, ishlari ko‘pligi bois sira kelolmasdi. Nihoyat bu yil yozda u qizi va turmush o‘rtog‘i Viktoris bilan O‘zbekistonga keldi. Iltimoslariga binoan, ularni kirakash mashinada ko‘hna va azim Samarqandga olib bordim. Yo‘l uzoq. O‘zaro muloqot chog‘ida unga yurtimizdagi o‘zgarishlar haqida gapirib berdim. Shundan keyin biroz mizg‘ibman shekilli, Leyma ohistagina yelkamga turtib, mashina magnitofonidan taralayotgan qo‘shiqning

ma’nosini tushuntirib berishimni so‘radi. Shunda...shunda banogoh qo‘shiq deb atalmish bu matohni eshitib tepa sochim tikka bo‘lib ketdi. To‘g‘risi, yer yorilmadiyu, yerga kirib ketmadim:

Rano utrom turaman
Umivatsya qilaman
Potom ko‘cha kutadi
U meni o‘qitadi.
Parvo qilma, hammasi bo‘ladi okey

Krasavitsam,
bellaringga o‘l-ey...

Haydovchiga shuni ham qo‘yasanni degandek yovqarash qildim-da, boshqasini qo‘yishni buyurdim. U esa navbatdagi diskni qo‘yib berdi:

Sening qoshing
Sening ko‘zing
qoshlarning dodasi
ko‘zlarning dodasi

Ya tebya xochu ey lyubimaya...
To‘g‘risi, bunday almoiy-jalmoiy valdirashlarni qanday birga qilishni ham bilmay turganimda Umidaxonning «yangiligi» yangrab qoldi. Amma...

Moskvadan uchib keladi
gazama yor
Ya lyublyu desa u meny
dusha poyot
Yozgi ta‘tilingda birga
bo‘lamiz, jonim, asalim
Seni ko‘rib onajonim
bo‘lmasa edi kasal...

Boltiqbo‘yi xalqlari, ayiqsa, litvaliklar o‘z ona tilini juda qattiq hurmat qiladigan, shu bilan birga metindek qo‘riqlaydigan xalq. Shuning uchun ham ming bir istihola bilan Leymaga keyinroq tarjima qilib berishni aytib, gapni boshqa yoqqa burdim...

Xullas, yurtimizda o‘n kun mehmon bo‘lgan Tomkutelar oilasi va uning boshlig‘i Viktoris ketar chog‘i men bilan quchoqlashib xayrlasharkan, qiynalibroq bo‘lsada o‘zbek tilida men va oilamni Vilnyusga taklif qildi. Mening hayratda qolganligimni ko‘rib,

o‘zbekchalab tushuntirdi. U bir necha yillardan buyon turkiy adabiyotni, jumladan o‘zbek tili va adabiyotini ham o‘rganib kelarkan. Qadrdonim Leymaning dastlabki tanishtiruv chog‘idayoq uni filolog deb tanishtirgani shu yerdagina yodimga tushdi... Ana endi tushunayotgandirsiz mening nega bunchalik mulzam bo‘lganimni! Ular hammasini ko‘rib, bilib, eshitib ketishdi. To‘g‘ri, yurtimizning havosiyu, odamlari, taomlari, urf-odatlarini, mehmondostligi, tarixiy obidalarimizning ulug‘vorligi ularni hayratda qoldirdi. Ammo boshqa tomondan o‘zbek san’atini o‘ta g‘ariblashtirib, xor qilayotganlarning qiliqlari-yu aljirashlari mehmonlarni ajablantirmaganiga kim kafolat beradi?!

O‘zbekning zabardast adiblaridan biri Qo‘chqor Norqobil bilan o‘zaro gurunglarimizdan birida kuyib-yonib shunday degandi: «Qo‘yib bersang, bu ukkag‘arlar er-xotinning to‘shakdagi munosabatini ham qo‘shiq qilib yuborishadi!»

O‘shanda bu gapga kulibgina qo‘ya qolgandim. Biroq yaqinda yoshi 60 larni qoralab qolgan, teleekranlarda doimo nevaralari bilan maqtanadigan ayol xonandalarimizdan biri xobgohda yotib olib, eshilib-to‘lg‘onib o‘z yorini sabrsizlik bilan kutayotganini aytib «zor-zor xonish qildi». Uning mo‘maygina aqchasini cho‘ntakka urgan TVchilar hech ikkilanmasdan bu qo‘shiqning klipiga qo‘shib xonandaning hayosiz qiliqlarini ham efirga uzatib yubora qolishdi.

Muhtaram o‘quvchi! Endi anglagandirsiz, Xurshid Do‘stmuhammadning Qur‘oni Karimdagi Allohning «Qayon ketmoqdasizlar?» oyati kalimasini doimo o‘z-o‘ziga savol tarzida berib yurishini... Endi anglayotgandirsiz mening nega izza bo‘lganligimni... Eng yomoni, dilni yana shu savol qitnaydi: bir xorijlik oila o‘z yurtiga o‘zbek san’ati shu ekan, deb ketmadimikan ishqilib?! Bunga yo‘l qo‘yayotganlarni tiyib qo‘yish, lozim bo‘lsa ularning yuziga qonun bilan «tarsaki tushirish» payti kelmadimikan?!

Fikrimizcha, 2023 yilning 20-aprelida qaytadan tashkil etilgan Davlat tilini rivojlantirish Departamenti rahbarlari yuqoridagidek holatlarga barham berishga qattiq kirishishlari lozim. Zotan, bu yerda millat sha’ni, qadr-qimmatini, ori bor. Endilikda jamoasi deyarli yangilangan ushbu muassasa rahbar-xodimlaridan xalqimiz ko‘pdan-ko‘p yaxshiligi-yangiliklarni kutayotganligi bor gap!



Shu erda sevimli shoirimiz Muhammad Ismoilning quyidagi fikrlarini keltirishni joiz deb bildim:

«Bugungi o‘zbek 100 mln. so‘mga mashinasiga yangi, chapani nomer oladi-yu, ammo bolasiga o‘n ming so‘mga kitob olib berishga og‘rinadi. O‘zbekiston xalqi bir yilda 3 mlrd. dollar mablag‘ni to‘y-hashamga sarflaydi-yu, ammo butun yurt aholisi bir yilda 100 ming dollarlik kitob sotib olmaydi. Hatto Imom Buxoriy hazratlarining kitoblari do‘konlarimizda sarg‘ayib turaveradi. Olmoniya aholisining 95 foizining uyida o‘z shaxsiy kutubxonasi bor, minglab yillik tarixga, madaniyatga, ma’rifatga ega O‘zbekiston aholisining 95 foizining uyida esa shaxsiy kutubxonasi yo‘q.

Amir Temur bobomiz ham «Kitob – barcha bunyodkorlik, yaratuvchanlik va aql-idrokning, ilmu-donishning asosidir. Hayotni o‘rgatuvchi murabbiydir. Vasiyatim – kitob o‘qing!» degan ekanlar.

Muhaddislar sultoni Imom Buxoriy ilm sirlari bilan qiziqib, dunyo kezib 60 mingdan ziyod hadisni to‘plaganlarida endigina 16 yoshdan oshgan ekanlar. Shuningdek, u zotning 63 yillik umri davomida amalga oshirgan ishlari butun yer yuzida mavjud bo‘lgan 63 ta Fanlar Akademiyasining qilgan ishidan ko‘proqdir! Bu zot 300 mingdan ziyod hadisni yod bilgan. Forobiy bobomiz esa 70 dan ortiq tilda muloqot qila olgan bo‘lsa, Beruniy bobomiz 30 ta tilni mukammal bilgan! Abu Ali ibn Sino hazratlari yetti yoshligida Qur‘oni Karimni yod bilib, umri davomida 100 dan ortiq ma’rifiy kitoblarni bitgan.

29 ta davlatni egallagan Amir Temur bobomiz 15 ta xorijiy tilda erkin so‘zlashgan va harb ilmining otasi bo‘lgan. Mirzo Ulug‘bek bobomiz jahonda ilk marotaba 15-asrdayoq 1019 ta yulduzning harakat jadvalini tuzib, dunyo olimlarini hayratga solgan ekanlar.

Bas, shunday ekan, bu mo‘tabar zotlarga munosib bo‘lish o‘rniga yuqorida aytganimizdek, sahnaga chiqib olib aljirab, o‘zbek tilini, millatning nomi-yu g‘ururini, sha’ni yerga urishni bas qilish, bunga amal qilmaganlarni esa qonun bilan jazolash kerak.

Shu erda sevimli shoirimiz Muhammad Ismoilning quyidagi fikrlarini keltirishni joiz deb bildim:

«Bugungi o‘zbek 100 mln. so‘mga mashinasiga yangi, chapani nomer oladi-yu, ammo bolasiga o‘n ming so‘mga kitob olib berishga og‘rinadi. O‘zbekiston xalqi bir yilda 3 mlrd. dollar mablag‘ni to‘y-hashamga sarflaydi-yu, ammo butun yurt aholisi bir yilda 100 ming dollarlik kitob sotib olmaydi. Hatto Imom Buxoriy hazratlarining kitoblari do‘konlarimizda sarg‘ayib turaveradi. Olmoniya aholisining 95 foizining uyida o‘z shaxsiy kutubxonasi bor, minglab yillik tarixga, madaniyatga, ma’rifatga ega O‘zbekiston aholisining 95 foizining uyida esa shaxsiy kutubxonasi yo‘q.

Amir Temur bobomiz ham «Kitob – barcha bunyodkorlik, yaratuvchanlik va aql-idrokning, ilmu-donishning asosidir. Hayotni o‘rgatuvchi murabbiydir. Vasiyatim – kitob o‘qing!» degan ekanlar.

Muhaddislar sultoni Imom Buxoriy ilm sirlari bilan qiziqib, dunyo kezib 60 mingdan ziyod hadisni to‘plaganlarida endigina 16 yoshdan oshgan ekanlar. Shuningdek, u zotning 63 yillik umri davomida amalga oshirgan ishlari butun yer yuzida mavjud bo‘lgan 63 ta Fanlar Akademiyasining qilgan ishidan ko‘proqdir! Bu zot 300 mingdan ziyod hadisni yod bilgan. Forobiy bobomiz esa 70 dan ortiq tilda muloqot qila olgan bo‘lsa, Beruniy bobomiz 30 ta tilni mukammal bilgan! Abu Ali ibn Sino hazratlari yetti yoshligida Qur‘oni Karimni yod bilib, umri davomida 100 dan ortiq ma’rifiy kitoblarni bitgan.

29 ta davlatni egallagan Amir Temur bobomiz 15 ta xorijiy tilda erkin so‘zlashgan va harb ilmining otasi bo‘lgan. Mirzo Ulug‘bek bobomiz jahonda ilk marotaba 15-asrdayoq 1019 ta yulduzning harakat jadvalini tuzib, dunyo olimlarini hayratga solgan ekanlar.

Bas, shunday ekan, bu mo‘tabar zotlarga munosib bo‘lish o‘rniga yuqorida aytganimizdek, sahnaga chiqib olib aljirab, o‘zbek tilini, millatning nomi-yu g‘ururini, sha’ni yerga urishni bas qilish, bunga amal qilmaganlarni esa qonun bilan jazolash kerak.

Abdug‘affor OMONBOYEV,
«Milliy tiklanish» muxbiri



Дина ХИСАМОВА:

«Ўзбекистон миллий меросини халқаро миқёсда каталоглаштириш бўйича илмий ишлар таҳсинга лойиқ»

«Ўзбекистон маданий мероси – янги Ренессанс асоси» VII халқаро конгрессининг учинчи кунги тадбирлари янада қизгин, фикр мулоҳазаларга бой бўлиб, иштирокчиларни ўзаро ҳамкорликка чорламоқда.

Унда иштирок этаётган татаристонлик мутахассис Дина Хисамова мамлакатимиздаги ўзгаришлар хусусида фикр билдирди:

– Ўзининг буюк алломалари ва тарихий обидалари билан маълумо машҳур бўлган Ўзбекистондаги ўзгаришларни кўриб, ҳавасим келди. Бундай ўзгаришлардан ўрнак олса арзийди.

Айтиш керакки, Мен Ўзбекистон маданий меросини ўрганиш, асраш ва оммалаштириш бўйича Бутунжаҳон жамияти конгрессида биринчи марта иштирок этапман. Мамлакатнинг ўз меросини асраб-авайлаш борасида амалга ошираётган ишлари барчага манзур бўлмоқда.

Кўлами, маърузалар сони, маърузачилар даражаси ва миллий меросни халқаро миқёсда каталоглаштириш бўйича улкан илмий ишлар фақат таҳсинга лойиқ. Сиз жиддий халқаро тадқиқот платформасини яратдингиз, унга нафақат йирик музейлар ва кутубхоналар, балки бутун дунёнинг хусусий нашрлари ва кичик коллекциялари ҳам қатта ташаббус билан қўшилди.

Жамият жамоасининг кўплаб мамлакатлар шарқшунос олимларида ўзбек объектларини излаш, уларнинг тўпламлари ва фондларини янада чуқурроқ ўрганишга кизиқиш уйғотгани ҳам муҳим аҳамиятга эга.

Татаристон Республикаси давлат тасвирий санъат музейига бағишланган ушбу конгрессда тақдим этган китобимиз ҳам шулар жумласидан. Бутунжаҳон жамияти мурожаатидан сўнггина биз коллекция-мизда Ўзбекистоннинг нақадар ажойиб тўпламлари сақланишини англаб етдик ва биринчи марта музейимиз коллекциясидаги мутлако хайратланарли кашфиётларга оидлик киритувчи тадқиқот ўтказдик.

Бинобарин, Ўзбекистон амалга ошираётган ишлар шунчаки хайратланарли, бу бошқа халқлар ва давлатлар учун ўзинга хос намунадир. Жамиятингизнинг иккинчи муҳим вазифаси шундаки, сиз туфайли биз, турли мамлакатлар олимлари дунёкарашимизни кенгайтира оламиз, бошқа мамлакатлардаги ҳамкасблар билан учрашамиз, тажриба алмашамиз.

Бу бизга мустаҳкам илмий алоқаларни ўрнатиш ва ўз музейларимиз коллекцияларига бошқа нуқта назардан қараб имконини беради. Бу халқаро маданий ҳамжамиятни сақлаш ва ривожлантириш учун принципиал аҳамиятга эга.

Ўзбекистоннинг ИҚТ доирасидаги товар айланмаси 9 ойда

9,2 МИЛЛИАРД ДОЛЛАРНИ ТАШКИЛ ЭТДИ

Бугунги кунда Иқтисодий ҳамкорлик ташкилотига ўнла давлат – Озарбайжон, Афғонистон, Эрон, Қозғистон, Қирғизистон, Покистон, Тожикистон, Туркменистон, Туркия ва Ўзбекистон аъзо.

Мамлакатимиз маъмур халқаро тузилмадаги шериклари билан самарали ҳамкорлик қилиб келмоқда. Хусусан, савдо-иқтисодий ва сармоявий алоқани кенгайтириш, жаҳон бозорида рақобатбардошликни ошириш, минтақада транспорт йўлакларини, саноат кооперациясини ривожлантириш, мавжуд имкониятдан самарали фойдаланиш ва янги йўналишларни яратиш муҳим вазифа саналади.

Сўнгги йилларда

Ўзбекистоннинг Иқтисодий ҳамкорлик ташкилоти доирасидаги ҳамкорлиги сезиларли даражада фаоллашди. Иқтисодий тадқиқотлар ва ислохотлар маркази берган маълумотга кўра, 2021 йил Ўзбекистоннинг тузилма таркибидаги мамлакатлар билан товар айланмаси 35,1 фоиз ўсиб, 11,2 миллиард долларга етди. 2022 йилда ўсиш тенденцияси давом этди ва товар айирбошлаш кўрсаткичи 10,4 фоиз ўсиб, 12,4 миллиард долларни ташкил қилди.

Ўзбекистон ташки савдосида ИҚТ улуши 24,7 фоизни ташкил этади. Эътиборли жиҳати, 5,75 миллиард долларлик экспорт ҳажми 2021 йилга нисбатан 6,3 фоиз юкори. Импорт эса 6,62 миллиард доллар – 14,3

фоиз ўсган. Ўтган йил умумий экспортнинг учдан бири қисми – 29,8 фоизи ИҚТ мамлакатлари ҳиссасига тўғри келди.

Яна бир маълумот: ўтган йил товар айирбошлашда энг кўп улуш Қозғистон (37,5 фоиз) ва Туркия (26,3)га тегишли бўлди. Кейинги ўринларни Қирғизистон (10,2), Туркменистон (7,5), Афғонистон (6,1), Тожикистон (5,5), Эрон (3,5), Покистон (1,9) ва Озарбайжон (1,5) эгаллади. Ўтган йил республикамизнинг ИҚТ давлатлари билан савдо айланмаси 1,13 триллион доллардан ошди.

Жорий йилнинг 9 ойи кўрсаткичини кузатсак, ҳамкорлик сезиларли даражада фаоллашганига гувоҳ бўламиз. Яна рақамларга мурожаат

қиламиз: ҳисобот даврида ИҚТ доирасида товар айланмаси 9,2 миллиард долларни, аъзо мамлакатларнинг Ўзбекистон умумий товар айланмасидаги улуши 20,5 фоизни ташкил этди. Бунда экспорт миқдори 4,2 миллиард доллар, импорт эса 5,0 миллиард (+3,3%) долларга тенг.

ИҚТ мамлакатлари мамлакатимизнинг асосий экспорт-ҳамкор давлатлари қаторига қиради.


Бир сўз билан айтганда, маъмур минтақавий ташкилотнинг халқаро миқёсдаги улкан иқтисодий салоҳияти, ўрни ва аҳамияти тобора ортмоқда.

Ш. МАМАТУРОВА,
ЎЗА

✓ Кутинг!


ЖАЗАВАГА ТУШАЁТГАН ОРСИЗЛАР

ҲАҚИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР БУ САНЪАТМИ ЁКИ МАНҚУРТЛИК САРИ ТАШЛАНАЁТГАН ҚАДАМ?



Келгуси сонларда

✓ Мутолаа



Ўткир ҲОШИМОВ

СЎКҚАБОШ Себагина

– Мумкинми? Гуд мнинг! Салом! Рухсатингиз билан ўзимни таърифлаш этсам... Жонетта Кабуловна Халтаева! Мен к соҳалениу сизнинг соҳилениларингизни ўқиган эмасман. Ростини айтсам, китоб ўқишга вақт йўқ. Биласиз, время – деньги. Хотя эшитганман. В основном мамашкалар ҳақида ёзаркансиз.

Менинг ҳам тўртта болам бор... Нима? Унақага ўхшамайди, дейсизми? Раҳмат, комплемент учун! Ҳамма шунақа дейди. Мен мамамга ўхшайман. Мамам олтиш ёшдаям апапетитний эди. Как кукла! Ҳар кунни соҳилени причёска қилдирарди. Альчибалтга! Альчибалтни танийсизми? Неужели? Первоклассний мастер-ку! Мужской салонига бормагансизми? Впрочем, майли... Оловингиз борми?... Йўқ-йўқ, мен «Море» чекаман... Сенкой Зажигалкангизга гап йўқ. Точно импортний!

Итак, тўртта болам бор. Маратик – Нукусда. Интернетда. Эши... Минуточку, эши, помоему ўн тўртта. Шу йил ўн тўртта қиради. Колия – папаси. Қр-расавчик! Смуглийлиги, кўзининг резрези... Папаси билан биринчи встречамиз Нукусда практикага бормганимда бўлган. Зам министр эди. Шунақа абаятельный, шунақа интеллигентний. Икки йилча турдик. Цивилизованный ажрашдик. Тўғриси айтиди. «Жаночка, жоним, – деди, – бу ёғи прокол бўладиганга ўхшайди, хотиним жалоба ёзибди, двоженство учун ишдан ҳайдашлари мумкин», деди. Биласиз, у пайтаду бунақа масалалар строги эди. «Маратик учун волноватся

қилма, ўзим опекамга оланман, сен, Тошкентга кетавер, регулярно бориб тураман», деди. «О-кей!» Дедим...

... Нигорочка – Самарқандда. Тоест, Нигорочка эмас, Наргизочка! Нигорочка – Қўқонда...

Где-то икки йилча олдин Самарқандга бордим. Наргизочканинг детдомига кирдим. Детдом – так себе. Аммо директор ништяк экан! Дылда!

Буй-бастии икки метр. «Братан, дедим, – Наргизочкадан хабар олишим қийин. Ишларим навалом», дедим. «Хотиржам бўлинг. Наргизочкага ўзим оталик қиламан», деди. Уч кун меҳмон бўлдим. Қр-р-утой эркак экан! Молодец!

Наргизочканинг папочкаси ҳам крутой эди. Межрайонний нефтебазада директор бўлиб ишларди. Эши эллиқдан ошган бўлсада, как огуричк эди. Самарқанднинг пахани эди. Хотинидан кўрқмасдан шик-к-карний тўй қилди. Ресторанда. Емон яшмадик... Камалиб кетгани чатоқ бўлди.

Уша ердан «ксива» келди – хабар. У кишининг айтишларича, как будто ҳаммасига мен виновата эканман. Э, тўкил дедим! Бензинга дизтопливо кўшишни мен ўргатдимми сенга дедим!

Аммо Нигорочкадан анчадан бери хабар олганим йўқ. Айтим-ку, «время – деньги». Қўқонга ҳеч йўлим тушмайпти. Нигорочка отасида қолган. Предприниматель эди. «Жаҳон бозорида» саккизта «точка»си бор эди. Характери «миленький». Такой послушный. Иккита хотинидан боласи бўлмагани учунми, Нигорочкани жонидан ортик кўрарди. Ҳар кунни минг хил уйинчоқ олиб келарди. Ҳаммасига ўзи айбдор!

Нукул замечание беради, нотация ўқийди. «Жаннатхон, таҳорат сувини яхши иситмабсиз. Хуфтондан кейин кўчага чиқмасинлар. Н о м а х р а м л а р г а кўринмасинлар. Бегона эркаклар билан гаплашмасинлар!» Томи кетган фанатик! Эркакнинг ҳам бегонаси бўларканми?! Э, сирпа, дедим! Обберган бир хонани квартиранда как дурочка учинчи хотин бўлиб ўтиришнинг керакми, дедим!

...Пардон, яна оловингиздан... Сенкую. Между прочим, зажигалкангизга гап йўқ! Кўп чекасизми? Шавкатнинг папасиям кўп чекарди. Мана буну настоящий мужик деса бўлади! Қомат бесподобний! Сочлар курчавий! Бизнесни синдириб кўяди! Ҳамма иши «дода!» Тўртта хотинини вот так обеспечить қилиб қўйган. Разумеется загсимиз йўқ эди. Впрочем буниси неважно. Иккита «Мерси» бор эди. «Мерс – 600!» Белдерсойдаги дачасини айтинг! Саунаси, бассейни...

Нет равных! Бир йилча бўлди. Россияга кетганча дараги йўқ. Уша ердаги братанлардан суриштирсам, биз не в курсе дело, дейди...

Шавкатчик ўзимда. Икки ёшга чиқди. Шустрий. Ходячая бомба. Между нами бир гап айттайми? Уйга нотанис «дядя»лар келса, ҳалидан мени ревновать қилади, паразит! Сизни «фазенда»га «ходячий бомба» йўқлигида чақираман, о-кей!

В общем майли, ближе к делу! Менга сизнинг паддержангиз керак. Ҳокимиятга заявление берган эдим. «Мен мать одиночкаман. Қийналиб кетдим, шаҳар марказидан квартира беришингизни минг хил уйинчоқ олиб келарди. Ҳаммасига ўзи айбдор!

кейин келинг, деди. Бугун борсам нима дейди денг? «Тўрт хонали уйингиз бор экан-ку!» дейди. Мен уйни сенинг пулиннга опманми? Худого шукур, бошимда эрларим тоест, эрим бор, тоест бор эди. Бу уйни ўз пулимга сотиб олганман. Уйигрма минг «бакс»га! Тагин нима дейди денг, фраер? «Опажон, «монетный двор»дан чиқиб келдингизми, ҳамма ёғингиз бриллиант-ку!» дейди. Менга комплемент қилипти, сопляк! Бриллиантний сен подарка қилсанми? Аёл бошим билан бизнес қилганман. «Челнокка боряпман. Стамбулга, Дубайга, Южный Кореяга... Осонми? Ҳар қадамда «мент!» «Доля» чўзмасанг, ҳаммасини обкўяди!

Кстати... Дубайда бўлгансизми? Обязательно боринг! Техника почти даром! Тилла – навалом. Араблар темпераментний бу... Ну, буниси неважно!

Короче, ҳокимиятдаги уша пацан «Сизга уй йўқ, ҳамма квартиралар приватизация қилиб бўлинган, қаёққа борсангиз, «катта кўча», деди. Шуни бир фельетон қилинг! Беспомощний мать-одиночкани унижат қилиш қанақа бўлишини бир, кўрсатиб қўйинг! Мен ҳам қарздор бўлиб қолмайман. Фамилияси... Минуточку, фамилияси... Ёзиб олганман...

Нима? Ёзмайсиз? Тоест, как ёзмайсиз? Нима? Нима дедингиз? Яна бир қайтаринг! «Мен инкубатор тузатадиган уста эмасман», дедингизми? Ким инкубатор? Нега аёл кишини ҳақорат қиласиз? Нима ҳақингиз бор. Нахал! Писака несчастный! Ма, зажигалканг бош-ш-шингдан қолсин!




Туркистонни зўрлик билан замонавийлаштириш асосига колоқликда ушлаб туришга, мамлакатдаги ишлаб чиқаришни чор Русияси марказий саноат хуудлару талаб ва эхтиёлариға боғлик қилиб қўйишға бирламчи эътибор қаратилди.

ҲАМЗА ҲАКИМЗОДА НИЁЗИЙ

100

йил аввал неға фарёд чеккан эди?



Ўтган аср бошида Туркистон тарихида энг мухим воқеа сифатида жадидчилик харакати момоқалдирик шиддатидек хаётимизға кириб келди... Жадидлар халқининг «кўзини очини», жондан азиз Туркистонни уйғотиш учун қора булутлар эғаллаган осмонимизда чакиндек порладилар. Филология фанлари доктори, профессор Бегали Қосимов таъкидлаганидек, жадидчилик ғоялари эрта бахорнинг шиддатли шамоллари сингари нўпанак босиб, билжираб кетган ўрта асрчилик турмушини энг настки қатламларигача очиб ташлади. Маълумки, жамият хаётига маданий-маърифий харакат сифатида кириб келган жадидчилик кейинчалик кенг ижтимоий харакатға айландики, унинг аъзолари бўлган Туркистон тараккийпарварлари ўзларининг асосий мақсадини халқни мустақиллик ва озодликка олиб чиқишда кўрдилар. Халқнинг, Туркистоннинг хаёт-мамоти масаласи хақида жар солинишида

жадидлар асос солган матбуотнинг, хусусан, «Садон Туркистон» газетасининг роли бекиёс бўлганини алоҳида таъкидлаш жоиз. Бу миллий газетаға маърифатпарвар Убайдулла Асадуллахўжаев (1885-1938 йиллар) мухаррирлик қилган. У газета жамоасини Мунавварқори Абдурашидхонов, Абдулла Авлоний каби жадидлар билан ташкил этади. 1914 йилнинг 4 апрелидан чоп этила бошлаган нашр ижтимоий-сиёсий, маънавий-маърифий, маданий ва ахлоқий мавзулардаги муаммоларни дадил олиб чиқиши ҳамда миллат ва миллийлик масаласига бирламчи эътибор бериши орқали ҳам жадид матбуоти ичида ажралиб турган. Шу ўринда газетанин 1914 йил 10 август сониде эълон қилинган Ҳамза Ҳакимзода Ниёзийнинг «Фақирлик нимадан хосил ўлур?» номли мақоласига эътибор қаратсақ: «Житарнинг қон томчиларини кундан кун зиёд тараккий эттирмақда бўлган иллатларнинг энг биричи моддаси нимадир, деб сўрасангиз, вахшат, ғафлат ва жаҳолат деб жавоб

олурсиз. Бу уч киш ойлари ила тан, ақл ва кўзлари музлаб, совуқ урган дарахтлар каби мевасиз қолган ота ва боболаримизнинг муқофотларидан иборат бўлиб чиқди». Эътибор берган бўлсангиз, Ҳамза «вахшат, ғафлат ва жаҳолат»ни киш фаслининг уч ойига ўхшатапти. Миллатнинг фожиасида мана шу учта иллатни алоҳида таъкидламоқда. Жадид бобомиз халқ жисми, шуурининг музлаб қолишини ғафлат ва жаҳолатта ботиб, умргузаронлик қилаётганида деб билди. Айнан шу ғафлат, жаҳолат миллатни қай даражада хору зор этганини муаллиф мақола давомида шундай ифодалайди: «... Йигирма йил аввал, бостурма тагида, похол устида чакса жўхорини икки ой гўжа оши килуб ахлу аёллари ила ичуб, бўздан яктак ва лозим, олачадан тўн киюб, хафтада уч кун сайр, тўрт кун наълчилик килуб, шу тарика бир хунар ила бўлса ҳам тахмини маишат мукаммалануб, ўзларининг дохийий ва хорижий фиску-фасод, шаръу-шуурларига етишуб, яна беш пул,

ўн пул ёнларида қолар экан. Ажабо, нима бўлмишдики, ул усталарнинг кўплари гадо бўлуб кетгандирлар». Аҳоли турмуш даражасининг бундай кескин пасайиши, кашшоклашув муаммоси мақолада чуқур таҳлил этилиб, бунга 1912 йилдан кўплаб қосиблар зарар кўргани, оқибатда уларнинг мардикорлик қилишларига тўғри келаетгани, кучсиз мардикорларни эса бозор олмай, гадоилар қаторига кўшилгани айтилади. «1914 йил рамазонда гадоилар бошқаларга қараганда юзга кирк процент бўлуб кетган, десак ҳам лоф бўлмайди», деб ёзади муаллиф. Ҳўш, Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий нима учун бу каби мулоҳазалар билан қоғоз қоралади? Мақолани бошдан охир ўқисангиз, муаллиф муаммонинг сиёсий ва ижтимоий жиҳатиға эътибор қаратганини англайсиз: «Туркистонни Ғарб усулида зўрлик билан замонавийлаштириш асосида доимо колоқликда ушлаб туришға харакат қилинди; -мамлакатдаги ишлаб чиқаришни чор Русияси марказий саноат хуудлари талаб ва эхтиёлариға боғлик қилиб қўйилди; - капиталистик ишлаб чиқариш ўчоқлари барпо этилиши натижасида Туркистонда саноат товарларининг рақобати орта бориб, хунармандчилик ва қосибчилик емирила бошланди; ўлка хўжалиги чор Русияси иктисодиёти учун хомашё етиштиришға боғлик қилиб қўйилди.» Чиндан ҳам ўша пайтда Туркистоннинг иктисодий тобелиги янада кучайган эди, қосибчилик, хунармандчилик билан боғлик маҳаллий ишлаб чиқариш таназзулга учраган эди. Ҳамза эса муаммо ечим сифатида илми, маърифатни илгари суради ва «Бу хўрликларнинг илмсизликдан келганин шояд ўйлаган ва ақлга солуб қараган киши билур. Мана сиз ила инсонликда баробар бўлуб, илм ўқиган одамларни кўрасизми? Сиздан давлати тараккий этмаган бўлса ҳам, сиз каби хору зор бўлмасдан бир фалон ила маишат ўтқаруб келмақдасиз», дейди. Ҳамза ғафлатдан қутилиш учун илм-фанға эътибор қаратиш, ривожланаётган давлатлардан ўрганиш масаласини илгари суради. Истибодда, зулмға қарши бирлаштирувчи мухим куч бўлган ислом негизлари, ахлоқ ва қадриятларининг жамиятда бузила бошлаганини миллатнинг жаҳолатта ботиши билан изохлайди. «Ҳолик ва розики хақиқийлари бўлган жаноби бори таолонинг буюрган беш вақт саждасидан бўйин тортган мард йигитлар чорак газ чит учун ўзларига ўхшаган бир Худо бандасининг эшигиға бориб, бунча таъзимлар килуб, ташаккурлар айтув ва меҳнатлар чекуб, дарбадар юришлари, ох, қайси бир инсон наслини тахаййир зулматиға чўмдурмас, қайси бир хақиқий мусулмоннинг баданиға ўтлар тушурмас ва оламни зиндон қилмас?!»

Бу мустабид тузумнинг жамият бегоналашувига, ижтимоий тузилмалар занфлашувига ва оқибатда миллатни колоқликка маҳкум этишға қаратилган маккор сиёсати меваси эди. Буни англаган Ҳамза фарёд чекиб ёзади: «Ох, қани исломият аҳқоми? Қошки ул зақот берувчи зотлар берадирган бир неча вершук читларини миннатсиз ва озорсиз берсалар эди!». Муаллиф колоқлик, нодонлик ва жаҳолатдан халос бўлишнинг йўли сифатида миллатни маърифат сари чорлашға, нажот илмда эканини айтишға чоғлангандек кўринса-да, фақирликдан қутилиш учун зулмға қарши курашға, яъни истиклол учун борилашға чорлайди. Буни мақола охиридаги «мундан ҳам баттар кунларға қолмасам эди?!» деган жумлалар ҳам исботлаб турибди.

ДИҚҚАТ! ТАҢЛОВ!

«МИЛЛИЙ ТИҚЛАНИШ» ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ГАЗЕТАСИ ЮҚОРИ СИҢФ ЎҚУВЧИЛАРИГА САБОҚ БЕРАЁТГАН ЎЗБЕК ТИЛИ ВА АДАБИЁТИ ЎҚИТУВЧИЛАРИ УРТАСИДА

«ЎЗБЕК ТИЛИ – МЕНИНГ ТИЛИМ»

МАВЗУСИДА ИНШОЛАР ТАҢЛОВИНИ ЎТҚАЗАДИ.

Ғолиб

20 МИЛЛИОН

сўм пул муқофоти билан тақдирланади.

ШУНИНГДЕК, ТАҢЛОВДА 30 НАФАР ҚУШИМ-А НОМИНАЦИЯЛАР БУЙИЧА ҲАМ ҒОЛИБЛАР АНИҚЛАНАДИ.

20 МИЛЛИОНГА ДАЪВОГАРЛАР РҲЙХАТИ КЕНГАЙМОҚДА

Газетамизнинг 33 сониде эълон қилинган юқори сиҢф ўқитувчилари уртасида «Ўзбек тили – менин тилим» иншолар таҢлови юзасидан қўшимча маълумот: - иншо тахририятта электрон шаклда юборилиши, мустақил мулоҳаза, асослангилган мисоллар асосида ёзилган бўлиши керак; - иншонинг бирон бир маъбадан кўчирилмаганлиги муаллифлик ҳуқуқларини текшириш дастури асосида текширилади ва баҳоланади.

Иншонни мактаб рақами ва манзилини кўрсатган ҳолда mtiklanish@mail.ru электрон манзилига жўнатишингиз сўралади. Сизға омад тилаб қоламиз, азиз УСТОЗЛАР!

ЮТУҚЛАР ҒОЛИБ ҲАМДА ОМАДЛИ УСТОЗЛАРГА

2024

йилнинг сентябрь ойида – Ўқитувчи ва мураббийлар байрами арафасида топширилади.

Мурожаат учун: (90) 245-18-10 (97) 423-32-68

Алижон САҒАРОВ, ЎзЖОКУ кафедра мудири, филология фанлари бўйича фалсафа доктори, доцент



Ойдин ХОЖИЕВА

Ватанга Музаббат изҳори

Ҳазориспанд бўлсам саҳраларингда,
Феруза тош бўлсам дарёларингда,
Ҳайит ойи бўлсам самоларингда,
Меҳру вафо – кўрар дунёларингда,
Сени ёмон кўздан асрамоқ учун!

Остонамда ётган итинг бўлойин,
Наслингни пок тутган сутинг бўлойин,
Кўзингдаги хурлик ўтинг бўлойин,
Баланд тоғларда бургутинг бўлойин,
Сени ғаним кўздан асрамоқ учун!

Сўзим бор – савабда қилич бўлоли,
Шаҳдим бор – қуввати биринч бўлоли,
Яхши-ёмонингда илнж бўлоли,
Ипак жоним метиндан синч бўлоли,
Сени офат кўздан асрамоқ учун!

Фақат сен кўзимга боқиб тур, Ватан,
Онамдай елкамга қоқиб тур, Ватан,
Қалбимда дарёдай оқиб тур, Ватан,
Бошимда Ҳумодай балқиб тур, Ватан,
Мени гумон сўздан асрамоқ учун!
Сени ёмон кўздан асрамоқ учун!

САВОЛ БЕРИНГИ

? – Фуқаро автомобилни бошқариш ҳуқуқидан кўти билан қанча муддатга маҳрум қилиниши мумкин? Шу ҳақда маълумот берсангиз.
Хабиб Авезов, Тошкент шаҳри

? – Оила қуриш арафасидан. Янги оила қураётган келин-куёв учун тиббий кўрикдан ўтиш пулликми ёки бепул?
Умид Лутфуллаев, Зарафшон шаҳри

? – Ипотека кредити бўйича субсидия асосан қимматга берилди ва уни олиш учун қаерга муурожаат қилиш керак?
Маржона Норимова, Фарғона шаҳри

? – Истеъмолчи ичимлик суви учун тўловни вақтида тўламаса, тўланмаган қарз учун унга қанча пеня қўйилади?
Малика Шоалимова, Тошкент шаҳри

– Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекснинг 28-моддасига кўра, автомобилни бошқариш ҳуқуқидан маҳрум қилиш муддати ҳуқуқбузарликнинг даражасига қараб 15 кундан 3 йилгача давом этиши мумкин.


– Оила кодексининг 17-моддасида никоҳланувчи шахслар давлат соғлиқни сақлаш тизими муассасаларида бепул асосда тиббий кўрикдан ўтишлари белгилаб қўйилган. Шунга кўра, тиббий кўрикдан ўтиш жараёнида Сизлардан пул ундирилмайди.

– Субсидия даромади юқори бўлмаган ва уй-жой шароитини яхшилашга муҳтож оилаларга ижтимоий мезонлар асосида берилди. Субсидиялар бир оилага (оила аъзоларининг биттасига) фақат бир марта берилди. Ипотека кредитлари бўйича субсидия олишингиз учун пу.gov.uz портали орқали электрон тарзда ариза юборишингиз керак.

– Ҳукуматнинг 2014 йил 15 июлдаги 194-сон қарорига илова қилиб келтирилган “Истеъмолчиларга сув таъминоти ва оқова сувни чиқариш хизматлари кўрсатиш қодалари”га кўра, истеъмолчи ҳар бир кечиктирилган кун учун – юридик шахслар 0,4 фоиз, жисмоний шахслар (фуқаролар) эса 0,1 фоиз пеня тўлаши белгилаб қўйилган.

Юрист блогер расмий телеграм канали

Yuristkadrg расмий телеграм канали



? – Мен ишим билан боғлиқ сабаб туфайли фарандимни бошқа мактабга ўтказишимга тўғри келяпти. Бу жараён қандай тартибда бўлиши ҳақида маълумот берсангиз?
Зарифа Бекчанова, Навоий шаҳри

– Халқ таълими вазирлигининг 2015 йилда 2684-сон билан рўйхатдан ўтказилган буйруғига асосан, дастлаб болани бир мактабдан бошқа мактабга ўтказиш сабаблари кўрсатилиб, директор номига ариза ёзилади. Ариза бир иш кунинда кўриб чиқилиб, мактабдан кетиш талони берилди. Ариза ва талон танланган мактаб директорлиги томонидан қабул қилинганидан сўнг, мактабга келиш талони берилди ва мазкур талон собиқ мактаб директорига топширилади. Мактаб томонидан ўқувчи ўқувчилар сафидан чиқарилгани тўғрисида буйруқ қабул қилинади ва ўқувчи расман бошқа мактабга кўчиб ўтган ҳисобланади.

Юрист блогер расмий телеграм канали

Шахмат

Декабр ойида Тошкентда жаҳон чемпионати ўтказилиши мумкин



Тезкор шахмат (рапид ва блиц) бўйича навбатдаги жаҳон чемпионати жорий йил декабрь ойининг сўнги кунларида пойтахтимизда ўтказилиши мумкин.

Яқинда ФИДЕ комиссияси вакиллари пойтахтимизга келиб, тегишли мажмуалар, зарур объектлар билан танишиб кетди. Лекин ҳали ушбу жаҳон чемпионати Тошкентда ўтказилиши бўйича шартнома имзолангани йўқ. ФИДЕ шартномани жўнатган. Бироқ маблаг масаласида ҳали келишувга эришилмаган.

Регламентга биноан ФИДЕ жаҳон чемпионатининг 50 фозини кўтарини керак. Ўзбекистон томони эса қолган қисмини, ушбу жаҳон чемпионати аслида Хиндистонда ўтказилиши лозим эди. Аммо, кўнчилик шахматчилар, ФИДЕ ижроия кўмитаси вакиллари мусобакани Тошкентда ёки Дубайда ўтказиш таклифини илгари сурган. Бу борада молиявий масалалар ўз ечимини топса, тезкор шахмат бўйича навбатдаги жаҳон чемпионати пойтахтимизда уюштирилади.

Эслатиб ўтамиз, мазкур жаҳон чемпионати ўтган йили Козогистоннинг Алматы шаҳрида бўлиб ўтган эди. Унда Магнус Карлсен ҳам рапид, ҳам блиц йўналишида жаҳон чемпионлигига эришган.

У.СА

Ёш қизларни беркитарлар хумларга, Келинчақлар ўзин отар гумларга, Навқиронлар айланадир чимларга, Сарих девдан қаён қочур Бухоро?

Йўл-йўлакай тилло сочиб қочди ким,
Ўз юртига аза очиб қочди ким,
Шаҳидликнинг шаробидан ичди ким,
Лошинг чўқир чўлда ғажир, Бухоро...

Саноч-саноч тилло-қумуш олдилар,
Мил тортишиб, кўнглини кўр қилдилар,
Битингача териш, теринг шилдилар,
Ўзи сағир, елка яғир Бухоро...

Муллоларинг чиқардилар «қулоққа»,
Булбул кетиш, бойқуш чиқди кўндокқа,
Орифларинг солиб минг бир қўйноққа,
Зулм қуши бола очур, Бухоро!

Қизилларга тилмоч бўлган отам-а,
Қилич эмас, омон бўлган отам-а,
Ота юрти торож бўлган отам-а,
Айтсам, бошдан хушим учар, Бухоро!

Найранг қилиб гоҳ «оқ»лар, гоҳ «қизил»лар,
Жоҳилларнинг қули бўлди фозиллар,
Авраб келди мени зулмат-бозингар,
Гумроҳларинг бир йўл кечир, Бухоро!

Бир ғиштингга дунё маҳр бўлмағай,
Шарифликда сендай шаҳр бўлмағай,
Ҳеч бир авлод бизча гофил бўлмағай,
Гофилларинг бир йўл кечир, Бухоро!
Айтсам, бошдан хушим учар, Бухоро!

ЎЗИМГА

Билакда қувватинг, кучинг бор экан,
Яшашга, курашга ўчинг бор экан,
Дилда Оруз деган лочин бор экан,
Ениб яша, токи жонинг бор экан!

Майсадай шимиргин офтоб ўтини,
Кўзидай шимиргин баҳор сўтини,
Авайла Юракни – бу Рух кўтини,
Уйғоқ яша, ғафлат сенга ор экан!

Ер – ипак, қадаминг пардан-да энгил,
Мўрча қанотида мусаффо кўнгил,
Ё ҳайқирқ, ё бир оҳ бўли, тингил,
Ениб яша, дунё бир бозор экан.
Бир бошга бир ўлим харидор экан...

«MILLIY TIKLANISH» DEMOKRATIK PARTIYASINING IJTIMOY-SIYOSIY GAZETASI

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Alisher QODIROV – kengash raisi

Akmal SAIDOV, Abrog PO'LATOV, Amriddin BERDIMURODOV, Akmal JUMABOYEV, Bahodir MAMATXONOV, Ilhom ABDULLAYEV, Ibrohim G'OFUROV, Iroda DADAJONOVA, Minhojiddin MIRZO, Nodir MUXTOROV,

Odiljon TOJIYEV, Olim O'SAROV, Otabek JYANBOYEV, Ozodbek NAZARBEKOV, Ortiqali QOZOQOV, Feruza MUHAMMEDJANOVA, Xurshid DO'STUMHAMMAD, Sherzodxon QUDRATXO'JA, Shavkat SHARIPOV, Shuxratjon AXUNDJANOV.

TAHRIRIYAT MANZILI:
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Maqsud Shayxozoda ko'chasi, 1 A-uy. Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin.

Gazetada Internet ma'lumotlari va suratlaridan foydalanildi.

Tahririyatga kelgan xatlar doimiy e'tiborimizda bo'lib, ular mualliflariga qaytarilmaydi.

NAVBATCHI MUHARRIRLAR:
Abdug'afor OMONBOYEV, Mahbuba KARIMOVA
NASHR UCHUN MAS'UL:
Ma'murjon YO'LDOSHEV
NAVBATCHI:
Feruza XODJAYEVA
DIZAYN GURUHI:
Asilbek QUDRATOV, Firdavs HAMIDULLAYEV

Gazeta «Sharq» nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida chop etildi.
Korxonaning manzili: «Buyuk Turon» ko'chasi, 41-uy

2008-yil 29-oktabrda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0223 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.
Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

Adadi – 7 186.
Gazetaning bahosi kelishilgan narxda.
Qog'oz bichimi: 350x587. Hajmi: 4 bosma taboq
Buyurtma: G – 1116
Bosishga topshirish vaqti 21:00.
Topshirildi 02:40

Elektron pochta:
mtiklanish@bk.ru / mtiklanish@mail.ru

Telefon:
(97) 755-10-11

ISSN 2010-7714
123456